

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI



"QISHLOQ XO'JALIGIDA MENEJMENT" KAFEDRASI

**«AGRAR TARMOQ KORXONALAR FAOLIYATINI
BOSHQARISH» FANIDAN**

MA'RUZALAR MATNI

TOSHKENT – 2018

KIRISH

Mamlakat aholisining iste'mol buyumlariga va oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish eng avvalo agrosanoat majmuasi va bu majmuaning asosi bo'lgan qishloq xo'jaligi tarmog'ining rivojlanish darajasiga bog'liq. Bozor iqtisodiyoti shart-sharoitlari, qishloq xo'jaligining iqtisodiyotimizdagi, hayotimizdagi o'rni bu sohani isloh qilishni yanada chuqurlashtirishni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov o'zining "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" nomli asarida fermer xo'jaliklarining mamlakatimiz iqtisodiyotidagi o'rniga alohida e'tibor bilan qarab: "2008 yilda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining samaradorligini yanada oshirish prinsiplar muhim ahamiyatga ega ekanini inobatga olib, fermer xo'jaliklariga ajratilayotgan yer maydonlarini optimallashtirish borasida zarur ishlar amalga oshirildi.

Dastlab zarar ko'rib ishlaydigan, rentabelligi past va istiqbolsiz shirkat xo'jaliklarini tugatish negizida tashkil etilgan xususiy fermer xo'jaliklari bugungi kunda haqli ravishda qishloqda yetakchi bo'g'inga — qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi asosiy kuchga aylandi.

Hozirgi vaqtda fermer xo'jaliklari qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil etishning eng samarali shakli ekanini hayotning o'zi tasdiqlab bermoqda. Yurtimizda fermer xo'jaliklarini moddiy-texnik ta'minlash va moliyalash bo'yicha bozor iqtisodiyoti tamoyillariga to'la javob beradigan ishonchli tizim va mexanizmlar shakllantirildi va muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatmoqda"¹[1], - deb ko'rsatib o'tganlar.

Shu bilan birga, faoliyat yuritayotgan aksariyat fermer xo'jaliklarining ish tajribasi shundan dalolat beradiki, fermer xo'jaliklarini shakllantirishning dastlabki bosqichida ularga ajratib berilgan yer maydonlarining kamligi mahsulot ishlab chiqarish rentabelligining o'sishiga ko'p jihatdan to'sqinlik qilmoqda.

Imkoniyati, kuch-quvvati kam bo'lgan fermer xo'jaliklari o'zini zarur texnika, aylanma mablag' bilan ta'minlash, kredit qobiliyatiga ega bo'lish, eng asosiysi, o'z xarajatlarini qoplash va foyda ko'rib ishlash, daromadni oshirishning ishonchli asosiga aylanolmasligini bugun hayotning o'zi ko'rsatmoqda.

Shundan kelib chiqqan holda, yer maydonlarini to'liq inventarizatsiyadan o'tkazish va fermer xo'jaliklari faoliyatini tanqidiy baholash asosida ularning yer maydonlarini optimallashtirish bo'yicha keng ko'lamli, shu bilan birga, puxta o'ylangan ishlar amalga oshirildi. Bunda fermer xo'jaliklarining qaysi sohaga ixtisoslashgani va mamlakatimizning turli hududlaridagi aholi zichligi alohida e'tiborga olindi.

Shuning uchun «Qishloq xo'jalik korxonalari faoliyatini tashkil etish va boshqarish» fanining asosiy vazifasi talabalarga hamda qishloq xo'jaligini boshqarish bilan shug'ullanuvchi rahbar va mutaxassislariga korxonalarining tashkiliy-iqtisodiy va huquqiy asoslarini, ularni ixtisoslashtirish, tarmoq tarkibini maqsadga muvofiq shakllantirish, mehnatni tashkil etish va rag'batlantirish tizimini joriy etish, ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etish yo'llari va usullarini o'rgatishdan iboratdir.

¹[1] Каримов И.А., "Жаҳон молиявий-иқтисодий инқироzi, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари", Т.: "Ўзбекистон", 2009, 21 б.

1-MAVZU. “AGRAR TARMOQ KORXONALARI FAOLIYATINI BOSHQARISH” FANINING MAZMUNI, VAZIFALARI VA O‘RGANISH USULLARI

Reja:

1.1. Qishloq xo‘jaligining mamlakat iqtisodiyotidagi o‘rni va vazifalari.

1.1. Fanning predmeti va vazifalari.

1.1. Fanning boshqa fanlar bilan aloqalari.

1.1. Fanning o‘rganish va tadqiqot usullari.

Moddiy ishlab chiqarishning eng dastlabki va yirik sohasi – qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishidir. Bu sohaning asosiy vazifasi mamlakat aholisining oziq-ovqat mahsulotlariga, sanoatning esa xom ashyoga bo‘lgan talabini qondirishdir. Shunga ko‘ra, qishloq xo‘jaligining taraqqiyoti har bir mamlakat uchun ham iqtisodiy, ham ijtimoiy, ham siyosiy ahamiyatga ega.

Prezidentimiz I.A.Karimov “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari” nomli asarida ta’kidlaganlaridek: “Alohida e’tibor qaratish lozim bo‘lgan navbatdagi eng muhim ustuvor vazifa — qishloqda turmush darajasini yuksaltirishga, qishloqlarimiz qiyofasini o‘zgartirishga qaratilgan uzoq muddatli va bir-biri bilan chambarchas bog‘liq keng ko‘lamli chora-tadbirlarni amalga oshirish, ijtimoiy soha va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishni jadallashtirish, mulkdorning, tadbirkorlik va kichik biznesning maqomi, o‘rni va ahamiyatini tubdan qayta ko‘rib chiqish, fermer xo‘jaliklari rivojini har tomonlama qo‘llab-quvvatlashdan iboratdir”² [2].

«Agrar tarmoq korxonalari faoliyatini boshqarish» fani iqtisodiy fan bo‘lib, ayrim olingan korxonalarda iqtisodiy qonunlar, nazariyalar, modellar harakati mexanizmining o‘ziga xos xususiyatlarini, ulardan foydalangan holda korxonalar faoliyatini maqsadga muvofiq tashkil qilish, rejalashtirish va boshqarish yo‘llarini o‘rgatadi. «Agrar tarmoq korxonalari faoliyatini boshqarish» fani boshqa iqtisodiy fanlar singari cheklangan resurslar sharoitida moddiy ne‘matlar ishlab chiqarish, taqsimlash va iste‘mol qilish jarayonida insonlarning hatti-xarakatini tadqiq etadi. «Agrar tarmoq korxonalari faoliyatini boshqarish» fanining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida fermer va dehqon xo‘jaliklarining maqsadga muvofiq ishlab chiqarish hajmi, ixtisoslashuvi va tarmoq tarkibini asoslash;
- mehnatni tashkil etish, uni rag‘batlantirish, mehnatga haq to‘lashning muqobil tizimlarini ishlab chiqish va joriy qilish usullarini ishlab chiqish;
- ishlab chiqarish xarajatlari, tannarx va narxning shakllanish tamoyillarini, ularni boshqarish mexanizmini tadqiq etish;
- qishloq xo‘jaligi korxonalarining uzoq muddatli va aylanma aktivlarini, xususiy va qarz kapitalini boshqarish tizimi va usullarini aniqlash;

2[2] Каримов И.А., “Жаҳон молиявий-иқтисодий инқироzi, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари”, Т.:“Ўзбекистон”, 2009, 24 б.

- tavakkalchilikni, investitsiyalarni va pul oqimlarini boshqarish usullari va mexanizmini ochib berish;

- ichki xo'jalik rejalashtirish tizimi va biznes rejalarni ishlab chiqish uslublarini o'rgatish.

Ishlab chiqarish juda murakkab jarayon bo'lib, mehnat, mehnat quroli va mehnat predmetlarini qamrab oladi. Qishloq xo'jaligida esa tabiiy omillar bilan bog'liq munosabatlardan iborat. Shuning uchun, «Qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyatini boshqarish» fani o'z oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarni hal etishda bir qator fanlar yutuqlariga tayanadi. Bu fanlar tizimi (1-chizma):

- tabiiy fanlar;
- ijtimoiy-iqtisodiy fanlar;
- texnikaviy-texnologik fanlarga bo'linadi.

1-chizma. Fanning boshqa fanlar bilan aloqalari

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Qishloq xo'jaligining mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rni va vazifalari nimalardan iborat?

1. «Qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyatini tashkil etish va boshqarish» fanining mavzusi va predmeti nimalardan iborat?

1. Bu fan boshqa fanlar orasida qanday o'rin tutadi?

1. Fan o'z maqsadi va vazifalarini o'rganishda qanday uslub va usullardan foydalanadi?

2-MAVZU.QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARI FAOLIYATINI BOSHQARISH TIZIMI

Reja:

2.1. Korxonalar faoliyatini boshqarishning mohiyati va xususiyatlari.

2.2. Boshqaruv tamoyillari, maqsadi va vazifalari.

2.3. Boshqaruv usullarining mohiyati va xususiyatlari.

Boshqaruv faoliyati mehnat jarayonining xilma-xil jihatlaridan biri bo'lib, unga xos bo'lgan barcha elementlardan – mehnat predmeti, mehnat vositalari, mehnat va uning natijalaridan iborat bo'ladi.

Har qanday maqsadga yo'naltirilgan faoliyat, shu jumladan boshqaruv faoliyatining asosini ham tabiat, jamiyat va tafakkurning ob'ektiv qonuniyatlari tashkil etadi.

Korxonani boshqarish keng qamrovli faoliyat bo'lib, uning tarkibiga quyidagi elementlarni kiritish mumkin:

- boshqaruv mexanizmi (umumiy qonuniyatlar, tamoyillar, maqsad va vazifalar, usullar);
- boshqaruv tarkibi (boshqaruv organlari, mutaxassis xodimlar, texnik vositalar va boshqa);
- boshqaruv jarayoni (qarorlarni qabul qilish va amalga oshirish, boshqaruv texnologiyasi va tartibi, xodimlar faoliyatini tashkil etish).

Korxonadagi boshqaruv vazifalarini bajarishga tashqi va ichki omillar o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Ichki omillarga korxona hajmi, resurslarni taqsimlash, texnologik qurollanish darajasi, mehnatni tashkil etish usullari, ishlab chiqarish xarajatlari va baho siyosati kabi dastaklar kiradi. Bu omillarni ma'lum darajada oldindan rejalashtirish va nazorat qilish mumkin.

Tashqi omillar korxonadan tashqaridagi muhit ta'sirida vujudga keladi. Ular qatoriga bozor kon'yukturasi va raqobat muhiti, mol yuboruvchi va iste'molchilarning hatti-harakatlari, tabiiy-iqlimiy shart-sharoitlar, siyosiy va ijtimoiy omillar, huquqiy-me'yoriy baza va davlat boshqaruvi kabi omillar kiradi.

Boshqaruv tamoyillarini yaxshi o'zlashtirgan boshqaruvchilargina boshqaruv maqsadi va vazifalarini chuqur anglab, oqilona qarorlar qabul qilishi mumkin.

1. **Mehnat taqsimoti** tamoyili mehnatni tashkil etish va boshqarishda vazifalar va majburiyatlarni xodimlar o'rtasida oqilona taqsimlash jarayonini anglatadi.

1. **Vakolatlilik va majburiyat.** Vakolat boshqaruv qarorlarini qabul qilishga imkon bersa, majburiyat uning natijalari uchun javobgarlik tamoyilini belgilab beradi.

1. **Intizom** korxona xodimlari va ishchilarning belgilangan mehnat tartibi va qoidalarga so'zsiz rioya etishini va hurmat bilan yondoshishini talab etadi.

1. **Boshqaruvda yakkaboshchilik va kollegiallik.** Yakkaboshchilik tamoyili korxona xodimlarining yagona rahbar buyruqlariga qat'iy bo'ysunushini talab qiladi. Yakka boshchilikni **kollegiallik**, ya'ni qabul qilinadigan qarorlarda mutaxassislar va xodimlarning keng ishtiroki bilan qo'shib olib borish mumkin.

1. **Maqsadning yagonaligi** tamoyili korxonadagi barcha boshqaruv xodimlari, mutaxassislar va ishchilarning yagona maqsad va vazifalar yo'lida birlashishi zaruriyatini yuzaga keltiradi.

1. **Shaxsiy manfaatlar va korxona manfaatlarini qo'shib olib borish tamoyili** - korxonaning har bir xodimi o'z shaxsiy manfaati yo'lida qattiq mehnat qilish bilan birga, o'z manfaatlarini korxona manfaatlaridan ustun qo'ymasligi lozimligini anglatadi. Shu bilan birga boshqaruvchilarning korxona manfaatlarini ko'zlab qabul qilgan qarorlari xodimlar va ishchilarning manfaatlariga ziyon yetkazmasligi lozim.

1. **Moddiy va ma'naviy rag'batlantirish** tamoyili asosida korxona xodimlarining mehnati natijalarini munosib taqdirlash orqali mehnat unumdorligi va ishlab chiqarish samaradorligini yuksaltirish yotadi.

1. **Rejalilik.** Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarishni rejali boshqarish iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashning muhim shartidir. Bu tamoyil ishlab chiqarish rivojlanishining qisqa va uzoq muddatlarga mo'ljallangan yo'nalishlari, sur'atlari va nisbatlarini belgilashni ifodalaydi.

1. **Tejamlilik va samaradorlik** korxona faoliyatida moddiy-texnik, moliyaviy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish orqali eng kam xarajatlar evaziga maksimal foyda olish muhimligini anglatadi.

1. **Javobgarlik va tavakkalchilik.** Boshqaruvchi o'z faoliyati natijalari uchun ma'lum bir javobgarlikka ega bo'lishi, bunda ma'lum tavakkalchilik (risk) elementlarini ham hisobga olishi lozim.

11. **Boshqaruv etikasiga rioya etish.** Bu tamoyil boshqaruv xodimlaridan bilimli, madaniyatli va xushmuomala bo'lishni, xodimlarga ishonish va ularni eshita bilishni talab etadi.

12. **Boshqaruv shakli va usullarini takomillashtirib borish.** Kuchli raqobat sharoitida korxonani sinmasligi uchun boshqaruvchilar doimo o'z ustilarida tinmay ishlab, boshqaruv usullarini takomillashtirib borishlari va bozordagi o'zgarishlarga moslashishlari kerak.

Korxona miqyosida boshqarishning **asosiy maqsadi** – korxonaning ishlab chiqarish, tijorat, moliyaviy va boshqa faoliyatlarini oqilona tashkil etish hamda xodimlar salohiyatidan unumli foydalanish orqali foydani maksimallashtirishga erishishdir.

Boshqaruv vazifalari boshqaruv funksiyalari orqali amalga oshiriladi.

Boshqaruv funksiyalari – boshqaruv faoliyatining maqsadga yo'naltirilgan tarkibiy qismlaridan biridir. Zamonaviy boshqaruv nazariyalarida uning quyidagi funksiyalari ajratib ko'rsatiladi:

- boshqaruv ob'ektiga oid axborotlarni yig'ish, saqlash, tizimga solish va qayta ishlash;
- yig'ilgan axborotlarni operativ va moliyaviy hisobotlar yordamida tahlil etish;
- joriy va istiqbolli rejalashtirish;
- korxonaning ishlab chiqarish, tijorat, moliyaviy va investitsion faoliyatini tashkil etish va boshqarish;
- raqobat muhitida korxonaning yashovchanligini ta'minlovchi moliyaviy va marketing faoliyatini tashkil etish;
- mehnatni tashkil etish, majburiyatlarni taqsimlash va boshqarish;
- nazorat va tartibga solish.

Boshqaruv usullari bu boshqaruv sub'ektining muayyan natijalarga erishish maqsadida boshqaruv ob'ektiga ta'sir o'tkazish usullari yig'indisidir.

Ta'sir ko'rsatish mazmuniga ko'ra boshqaruvning **tashkiliy-farmoyish, iqtisodiy va ijtimoiy-psixologikusullari** mavjud.

Tashkiliy-farmoyish usullari korxona boshqaruvchilarining vakolati va hokimiyati kuchidan foydalangan holda, **tashkiliy-farmoyish vositalari** orqali boshqarish jarayonini bildiradi. **Hokimiyat** – boshqaruvchining irodasi, ta'sir kuchi, qobiliyatlari va malakasi, obro'si va tashkiliy-huquqiy vakolatlari doirasida xodimlarning mehnat faoliyatiga ta'sir o'tkazish imkoniyatlari va usullarini ifodalaydi. Ma'muriy-tashkiliy ishlar mehnat jarayonlarini **reglamentga solish** va **me'yoriy normativlarni belgilash** orqali ham amalga oshiriladi.

Reglamentga solish boshqaruv tuzilmalari va xodimlari faoliyatini qonunlar, qoidalar, buyruqlar, nizomlar orqali aniq belgilab qo'yish va ularni qo'llashga oid yo'riqnomalar ishlab chiqish bilan xarakterlanadi. Bulardan tashqari har bir mansabning bajaradigan ishlari turlarini, vakolatlarini, huquqlari va majburiyatlarini belgilab beradigan mansab yo'riqnomalari ham ishlab chiqilishi mumkin.

Me'yorlash, o'z navbatida, mehnat sharoitlari, ishlab chiqarishning moddiy-texnikaviy, mehnat va kapital sarflarini hamda ishlab chiqarish natijalarini ma'lum bir normativlar, kvotalar o'rnatish orqali miqdoriy chegaraga solishni anglatadi..

Iqtisodiy usullar - bu qo'yilgan maqsadga erishish uchun ishchi va xodimlarning manfaatlariga ta'sir o'tkazish orqali boshqaruv maqsadi va vazifalarini amalga oshirishga imkon beruvchi rag'batlar va vositalar yig'indisidir. Ularning mohiyati korxona faoliyatini iqtisodiy ta'sir vositalari (baho, kredit, rejalashtirish, xarajatlar va tannarx, foyda, soliqlar, ish xaqi, iqtisodiy rag'batlantirish va hokazo) orqali boshqarishdir.

Boshqaruvning iqtisodiy usullari xo'jalik yuritishning barcha dastaklari ta'siriga: **rejalashtirish, iqtisodiy tahlil, moddiy rag'batlantirish** va **xo'jalik hisobiga** tayanadi.

Rejalashtirish – boshqaruv faoliyatini ilmiy asoslangan tarzda tashkil qilish usullaridan biridir. Rejalar korxona faoliyatining barcha jihatlarini: moddiy-texnik ta'minot, ishlab chiqarish, mahsulot sotish, moliyaviy va investitsion faoliyat, presonal faoliyatini qamrab oladi. Rejalarni operativ, joriy va istiqbol davrlar uchun, alohida ish turlari yoki muayyan bir investitsion loyihalar uchun hamda korxonaning barcha faoliyatini qamrab oluvchi biznes reja tarzida tuzish mumkin.

Iqtisodiy tahlilning asosiy vazifasi - rejalashtirish tizimi orqali belgilangan maqsad va vazifalarga erishish holatini operativ ma'lumotlar, statistik va moliyaviy hisobotlar yordamida tahlil etib borish va tegishli qarorlar qabul qilishdir.

Moddiy rag‘batlantirish – boshqaruv tizimida alohida ahamiyatga ega. Moddiy rag‘batlantirish tizimi ish haqining progressiv usullarini qo‘llashni, tejamkorlik, mahsulot sifati va ortiqcha bajarilgan ish hajmi uchun turli mukofotlar hamda ustamalardan foydalanishni, xodimlar uchun moddiy yordam uyushtirishni yoki ularni ijtimoiy himoyalash maqsadida tashkil etiladigan tadbirlarni nazarda tutadi.

Boshqaruvning iqtisodiy usullari, shuningdek, o‘z ichiga **xo‘jalik hisobi** dastaklarini ham qamrab oladi. Xususan, ishlab chiqarish xarajatlari va natijalari nisbatlarini solishtirishga asoslangan tannarx, foyda, mehnat unumdorligi, fond qaytimi kabi qiymat ko‘rsatkichlari orqali boshqaruv ob'ektlarini tartibga solib turish mumkin bo‘ladi. Boshqaruv usullari tizimida iqtisodiy usullar yetakchi o‘rinni egalashi lozim.

Boshqaruvning **ijtimoiy-psixologik usullari** xodimlarning ijtimoiy ehtiyojlari va psixologik xususiyatlariga ta’sir etish bilan bog‘liq boshqarish vositalari va dastaklari yig‘indisidir.

Boshqaruvning ijtimoiy-psixologik usullarini qo‘llash korxonada yuz berayotgan ijtimoiy xodisalarni chuqur o‘rganish va xodimlar kayfiyatiga ta’sir etuvchi psixologik (ruhiy) omillarni bilishni talab etadi. Masalan, mehnat psixologiyasi xodimlarning shaxsiy xususiyatlari va qobiliyatlarini, kadrlarni o‘qitish usullarini, ish va dam olish tartibini, kadrlarni tanlash va baholash usullarini, mehnat jarayonining psixologik jihatlarini o‘rganadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Korxonalar faoliyatini boshqarishning mohiyati va zaruriyati nimalardan iborat?
1. Boshqaruv vazifalari, elementlari va tamoyillarini yoritib bering.
1. Boshqaruvning qanday usullari mavjud?
1. Boshqaruv usullarining o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
1. Boshqaruv qarorlariga qanday talablar qo‘yiladi?
1. Qarorlarni qabul qilish va amalga oshirishning qanday bosqichlari mavjud?
1. Boshqaruv uslublari to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
1. Boshqaruv uslublari turlarini keltiring va ularning xususiyatlarini yoriting.
1. Boshqaruv xodimlarining nufuzi nimalarda namoyon bo‘ladi?

3-MAVZU. QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARI SIFATINI BOSHQARISH

Reja:

- 1. Mahsulotlar sifatining mohiyati, ahamiyati va uning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri.**
- 2. Mahsulotlar sifatini belgilovchi asosiy ko‘rsatkichlar va ularni aniqlash usullari.**

Mahsulot sifatini oshirish har qanday qishloq xo‘jaligi korxonasi oldida turgan asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

1986 yilda Standartizatsiya bo‘yicha xalqaro tashkilot (ISO) tomonidan iqtisodiyotning barcha tarmoqlari uchun mahsulot sifati tushunchasiga aniqlik kiritilgan edi. Unga ko‘ra sifat – mahsulot yoki xizmatning iste‘molni qondirishga imkon beruvchi xususiyatlari va xarakteristikasi yig‘indisidir.

Sifat iste‘molning qanday darajada qondirilganini o‘lchovchi mezon sifatida yuzaga chiqadi. Bu yerda sifat ijtimoiy iste‘mol qiymatining miqdoriy xarakteristikasini, mehnat mahsulining foydaliligi darajasini aks ettiradi.

Birinchidan, fan-texnika taraqqiyoti natijasida mahsulotlar sifatiga qo'yilayotgan talab darajasi keskin oshmoqda. Yuqori sifatli mahsulotni iste'mol qilish iste'moldan qoniqish darajasini va uning foydaliligini ortishi bilan xarakterlanadi.

Qayta ishlash sanoati esa qishloq xo'jaligi mahsulotlarining yaroqliligi, resurs sarfi darajasi, ekologik xavfsizligi, tashish va saqlashga qulayligi, tayyor mahsulot chiqish darajasi, tolaning pishiqligi, mustahkamligi kabi bir qator sifat ko'rsatkichlariga e'tibor qaratadilar.

Ikkinchidan, ichki va tashqi bozorlarda vujudga kelayotgan keskin raqobat muhiti sharoitida "yashab qolish" uchun mahsulot sifati eng zarur shartlardan biriga aylanmoqda. qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari bozorida o'zimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan birga tashqaridan import qilingan mahsulotlar ham sotiladi.

Uchinchidan, keyingi paytlarda korxonalarning tashqi iqtisodiy faoliyati faollashib bormoqda va mahsulotni tashqi bozorlarda eksport qilish odatiy holga aylanmoqda.

To'rtinchidan mahsulot sifatini oshirish korxonalarning mahsulot birligini ishlab chiqarishga sarflaydigan resurslar sarfi samaradorligini oshirishga imkon yaratadi.

Beshinchidan mahsulot sifatini oshirish umumdavlat va jamiyat miqyosida ham manfaatlidir.

Mahsulot sifati ko'rsatkichlari – uni ishlab chiqarish va iste'mol qilish bilan bog'liq ma'lum bir sifat ko'rsatkichlari parametrlarining miqdoriy o'lchamini ifodalaydi. Qishloq xo'jaligida bunday ko'rsatkichlarga oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha ularning foydalilik darajasi, texnologik parametrlari, standartlashtirish xususiyatlari, ishonchliligi, ekologik tozaligi, to'yimliligi kabi ko'rsatkichlar kirsas, paxta xom-ashyosida uning navlari, tipi, tola va chigit chiqish nisbati, tolaning uzunligi va pishiqligi kabi ko'rsatkichlarni misol qilib keltirish mumkin.

Ko'pchilik sifat ko'rsatkichlari mahsulot xususiyatlarining parametrlaridan tashkil topadi.

Ifodalanish miqdori bo'yicha:

- ~ yakka ko'rsatkichlar;
- ~ kompleks ko'rsatkichlar.

Xususiyatlari bo'yicha:

- ~ iste'molga yaroqlilik darajasini ifodalovchi;
- ~ ishonchliligini baholovchi;
- ~ foydaliligini baholovchi;
- ~ tejamlliligini ifodalovchi;
- ~ to'yimliligini baholovchi;
- ~ mustahkamligini baholovchi;
- ~ texnologik parametrlarini baholovchi;
- ~ ekologik xavfsizligini baholovchi va boshqalar.

Ifodalash usuli jihatidan:

- ~ natural ko'rsatkichlar (% ,sm, kg va boshqalarda);
- ~ qiymat ko'rsatkichlari.

Ko'rsatkichlarni aniqlash bosqichlari jihatidan:

- ~ prognoz ko'rsatkichlari;
- ~ loyihaviy ko'rsatkichlar;
- ~ ishlab chiqarish ko'rsatkichlari;
- ~ iste'mol ko'rsatkichlari.

Yakka ko'rsatkichlar mahsulot sifatining alohida olingan biror bir xususiyatini baholash uchun qo'llaniladi. Masalan, paxta xom-ashyosidan tola chiqish darajasi.

Kompleks ko'rsatkichlar mahsulot sifatini baholashga imkon beruvchi bir qator xususiyatlarni qamrab oladi. Masalan, paxta xom-ashyosida uning navlari, tipi, namlik va ifloslanish darajasi, tola va chigit chiqish nisbati, tolaning uzunligi va pishiqligi kabi ko'rsatkichlar mahsulot sifatini kompleks baholashga imkon beradi.

Mahsulotning iste'molga yaroqliligi ko'rsatkichlari laboratoriya sharoitida davlat standartlari talablari asosida baholanadi. Bunda har bir mahsulotning xususiyatlaridan kelib chiqib tayyorlangan maxsus ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi. Bu ko'rsatkichlar tizimi mahsulotni sertifikatlashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Masalan, sut mahsulotini tekshirishda uning yog'liligi, tarkibida xolestirin moddasi mavjudligi darajasi, tozaligi va ekologik jihatdan xavfsizligi kabi bir qator ko'rsatkichlardan foydalaniladi.

Mahsulot sifatini ta'minlash usullarining ko'pchiligini sifat darajasini aniqlash ko'rsatkichlari tashkil qiladi. O'z navbatida ular ikki guruhga bo'linadi. Axborot olish usuli bo'yicha – o'lchov, ro'yxatga olish, organoleptik va hisoblash usullari mavjud. Axborot olish manbalari bo'yicha: an'anaviy, ekspert va sotsiologik usullardan foydalaniladi.

O'lchov usuli – texnik o'lchov vositalaridan foydalanish natijasida Aniqlangan sifat ko'rsatkichlarini baholashda ishlatiladi. Masalan, sutning yog'lilik darajasini o'lchovchi, paxta xom-ashyosining namliligini va iflosliligini o'lchovchi asboblarga misol bo'ladi.

Ro'yxatga olish usuli – mahsulotni ishlab chiqarish yoki sinov jarayonlarida olingan axborotlarni muntazam jurnalga qayd etib borish asosida olingan xulosalarga tayanadi.

Organoleptik usulda insonning sezgi organlari: ta'm bilish, ko'rish, eshitish, hid bilish organlari orqali olingan axborotlardan mahsulot sifatini aniqlashda foydalaniladi. Masalan, ular yordamida mevalarning shirinligi darajasi, pishib yetilganligi, toza yoki ayniganligini aniqlash mumkin.

Hisob-taqqoslama usuli – mahsulot sifati ko'rsatkichlarining uning parametrlariga bog'liq nazariy va emperik ma'lumotlarga tayanib amalga oshiriladi. Bunda aynan shu mahsulot sifatining tarmoqda belgilangan standart ko'rsatkichlari asos qilib olinadi va erishilgan natija ular bilan solishtiriladi.

An'anaviy usul – maxsus tajriba xo'jaliklari va laboratoriyalarda ixtisoslashgan malakali mutaxassislar tomonidan tajribalar o'tkazish orqali olingan ma'lumotlarga tayanadi.

Ekspert usulida mahsulotning sifat ko'rsatkichlari maxsus tashkil qilingan mutaxassis-ekspertlar ishchi guruhi tomonidan aniqlanadi. Bunday guruhga tarmoq xususiyatlari va qaralayotgan mahsulotning texnologik parametrlarini yaxshi biluvchi yetakchi olimlar va mutaxassislar jalb qilinishi lozim.

Sotsiologik usul mavjud yoki potensial iste'molchilarning mahsulot sifati to'g'risidagi fikrlarini yig'ish va tahlil qilishga tayanadi. Buning uchun anketa so'rovlari, sotsiologik tadqiqotlar, konferensiyalar, ko'rgazmalar yoki auksionlar o'tkaziladi.

Mahsulot sifati darajasini baholash uchun differensial, kompleks va aralash usullardan foydalaniladi.

Differensial usulda mahsulot sifatining alohida yoki kompleks xususiyatlari erishilgan natijani bazaviy daraja bilan solishtirib ko'rishga asoslanadi. Mahsulot sifatining ko'rsatkichlarini kompleks tarzda ifodalashga imkon beruvchi ko'rsatkichlardan biri mahsulot sifati indeksidir. Bu ko'rsatkich quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$H_{cd} = \frac{\sum_{i=1}^n Q_{i,\alpha c}}{\sum_{i=1}^n Q_{i,\beta}} ;$$

Bu yerda: $Q_{i,j}$, $Q_{i,b}$ lar mahsulot sifatining i-chi ko'rsatkichining mos ravishda joriy va bazaviy darajasi.

$i = 1, 2, 3, \dots, n$ mahsulot sifatining baholanuvchi ko'rsatkichlari soni.

Agar mahsulot sifati uning faqat bita ko'rsatkichi yordamida baholanayotgan bo'lsa, formula quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$H_{cd} = \frac{Q_{i.\mathcal{K}}}{Q_{i.\delta}} ;$$

Agar mahsulot sifatiga qo'yiladigan normativ sifat talablari mavjud bo'lsa, erishilgan darajani normativ darajadan chetlanishi quyidagi formula orqali baholanishi mumkin:

$$H_{cd} = \frac{Q_{i.\mathcal{K}} - Q_{i.n}}{Q_{i.\delta} - Q_{i.n}} ;$$

Bu yerda: $Q_{i.n}$ mahsulot sifatining normativ ko'rsatkichi.

Ayrim qishloq xo'jaligi mahsulotlari navlarga ega bo'ladi. Masalan, paxta xom-ashyosining sanoat navlari 5 ga, sinfi 3 ga, paxta tolasining sanoat navlari 5 ga, sinfi 5 ga, tiplari 9 ga bo'linadi (O'z DSt 604:2001). Bunday turdagi mahsulotlar uchun yuqori sifatli navlarning umumiy mahsulot miqdoridagi salmog'ini aniqlash muhimdir. Masalan, chunki paxta xom-ashyosining sanoat navlari va sinfiga ko'ra to'lanadigan haq ham turlicha bo'ladi. Yuqori navlarning umumiy mahsulot miqdoridagi salmog'ini hisoblashda quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$H_c = \frac{Q_i}{Q_t} \times 100 ;$$

Bu yerda: N_s – mahsulot miqdorida nav salmog'i, %da;

Q_i - i -chi navdagi mahsulot miqdori;

Q_t – mahsulotning yalpi miqdori.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Mahsulot sifati tushunchasi nimani anglatadi?
1. Mahsulot sifatini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimiga nimalar kiradi?
1. Mahsulot sifatini o'lchash mezonlari nimalardan iborat?
1. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari sifatiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
1. Seleksiya va urug'chilik ishlarining mahsulotiga ta'siri nimalarda ko'rinadi?

4-MAVZU.AGRAR TARMOQ KORXONALARI ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARINI VA MOLIYAVIY NATIJALARNI BOSHQARISH

Reja:

1. Ishlab chiqarish xarajatlarining mohiyati, tarkibi va elementlari.
2. Mahsulotlar tannarxining kalkulyasiya moddalari.
3. Tannarxni hisoblash ob'ektlari bo'yicha taqsimlash va hisoblash tartibi.
4. Mahsulot tannarxini pasaytirish yo'llari.

Xar bir xo'jalik mahsulot ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq xarajatlarni amalga oshiradi. Mahsulot ishlab chiqarish jarayonida sarf qilingan moddiy resurslar (asosiy

vositalar eskirishi, urug'lik, o'g'it, yonilg'i-moylash materiallari, ehtiyot qismlar va boshqa) va jonlimehnat ishlab chiqarish xarajatlarini tashkil qiladi.

Xo'jalikning mahsulot ishlab chiqarish, sotish va boshqa xo'jalik-moliyaviy faoliyati natijasida yuzaga keladigan xarajatlarini quyidagicha turkumlash mumkin:

1. Ishlab chiqarish jarayonidagi ishtirokiga ko'ra:

- ishlab chiqarish xarajatlari;
- noishlab chiqarish xarajatlari.

2. Mahsulot tannarxiga olib borilishi jihatidan:

- bevosita xarajatlar;
- bilvosita xarajatlar.

3. Xo'jalikning umumiy ishlab chiqarish, moliyaviy va boshqa xo'jalik faoliyati natijasida yuzaga keladigan:

- mahsulot tannarxiga kiritiladigan xarajatlar;
- davr xarajatlari;
- moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar;
- favqulodda zararlar.

Ishlab chiqarish xarajatlari bevosita ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirish bilan bog'liq quyidagi xarajatlardan tashkil topadi:

- bevosita moddiy material xarajatlari;
- bevosita mehnatga haq to'lash xarajatlari;
- ishlab chiqarishga taalluqli ustama xarajatlar.

Bevosita mahsulot ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lmagan xarajat turlari noishlab chiqarish xarajatlari deb yuritiladi. Uning tarkibiga:

- mahsulotni sotish bilan bog'liq xarajatlar;
- boshqaruv xarajatlari;
- boshqa operatsion xarajatlar va zararlar;
- moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar;
- favqulodda zararlar kiradi.

Ayrim turdagi ishlab chiqarish xarajatlarini yaratilayotgan mahsulot tannarxiga to'g'ridan-to'g'ri kiritish mumkin. Bunday xarajat turlari **bevosita ishlab chiqarish xarajatlari** deb yuritiladi.

Ikkinchi bir xarajat turlari bir necha xil mahsulot yetishtirish jarayonida ishtirok etishi tufayli ularni ishlab chiqarishdagi ishtirokiga mutanosib taqsimlashga to'g'ri keladi. Bunday xarajatlar **bilvosita ishlab chiqarish xarajatlari** deb yuritiladi.

Xo'jalikning ishlab chiqarish, operatsion, moliyaviy va boshqa faoliyati natijasida yuzaga keladigan xarajatlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizom»ga muvofiq quyidagicha turkumlanadi :

. Mahsulot ishlab chiqarish tannarxini hosil qiluvchi xarajatlar ularning iqtisodiy mazmuniga ko'ra quyidagi elementlar bo'yicha ajratiladi:

- ishlab chiqarishning moddiy xarajatlari;
- ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan mehnatga haq to'lash xarajatlari;
- ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar;
- asosiy fondlar amortizatsiyasi;
- ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan boshqa xarajatlar.

2. Ishlab chiqarish tannarxiga kiritilmaydigan, biroq asosiy faoliyatdan olingan foydani aniqlashda hisobga olinadigan davr xarajatlari elementlari:

- boshqaruv xarajatlari;
- mahsulotni sotish xarajatlari;
- boshqa operatsion xarajatlar.

3. Xo'jalikning umumxo'jalik faoliyatidan olingan foydasini aniqlashda hisobga olinadigan moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar:

- foizlar bo'yicha to'lovlar;
- mol-mulkni uzoq muddatli ijaraga (lizingga) olish to'lovlari;
- xorijiy valyuta bilan operatsiya bo'yicha salbiy kurs tafovutlari;
- qimmatli qog'ozlarga qo'yilgan mablag'larni qayta baholash;
- moliyaviy faoliyatga oid boshqa xarajatlar.

4. Xo'jalikning odatdagi faoliyatiga mos kelmaydigan, bir necha yillar davomida takrorlanib turmaydigan va fermer xo'jaligi boshlig'ining (mulk egasining) qabul qilgan boshqaruv qarorlariga bog'liq bo'lmagan holda vujudga keladigan voqeyalar va hodisalar (suv toshqini, yong'in, jala, do'l kabi tabiiy ofatlar va mamlakat qonunchiligi o'zgarishi) natijasida ko'rilgan zararlar.

Mahsulot tannarxi bir turdagi mahsulotni bevosita va bilvosita ishlab chiqarish xarajatlarini shu mahsulotmiqdoriga bo'lish orqali topiladi:

$$MT = \frac{MX + IX + CT + A + BIX}{M}$$

Bu yerda: MT – mahsulot tannarxi so'm/dona, so'm/kg va boshqa.

MX – ishlab chiqarishning moddiy xarajatlari, so'm

IX – ishlab chiqarish xususiyatidagi mehnatga haq to'lash xarajatlari, so'm

ST – ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan ijtimoiy sug'urta to'lovlari, so'm

A – asosiy vositalar amortizatsiyasi, so'm

BIX – boshqa ishlab chiqarish xarajatlari, so'm

M – mahsulot miqdori, sentner, dona, kg, tonna va hokazo.

Korxonaning qaysi tarmoqqa mansubligidan kelib chiqib, mahsulot tannarxini hisoblash moddalari farq qiladi. Masalan, qishloq xo'jaligida tannarxni hisoblash moddalari quyidagicha turkumlanadi (16-chizma):

16-chizma. Qishloq xo'jaligida mahsulot tannarxini hisoblashda xarajat moddalari

Qishloq xo'jalik korxonalarida ayrim turdagi mahsulotlar, o'simchilikda don, paxta, sholi va h.k.lar, chorvachilikda sut, o'stirilgan vazn, jun, tuxum hamda tirik vazn tannarxi aniqlanadi. Shuning uchun qishloq xo'jaligida mahsulotlar tannarxini hisoblash, kalkulyasiya qilish uchun xarajatlar qabul qilingan elementlar va moddalarga muvofiq ekinlar turi yoki guruhi, chorvachilikda esa chorva mollari turi va guruhlari bo'yicha hisoblab beriladi.

Mahsulot tannarxini aniqlash uchun xarajatlarni ayrim guruhlar va turlar bo'yicha alohida-alohida hisoblab borilishiga tannarxni kalkulyasiyalash, deyiladi.

Mahsulot tannarxini aniqlashda hisoblash ob'ektlarini bilish muhimdir. Qishloq xo'jaligida bir qator ekinlar va chorva mollaridan asosiy mahsulot bilan birga qo'shimcha va tutash mahsulotlar olinadi. Shundan kelib chiqib tannarx ob'ektlari belgilanadi.

O'simlikchilikda:

g'alla ekinlarida – don, don chiqitlari va somon;

paxtada - paxta xom-ashyosi;

sabzavot, poliz va kartoshkada – tegishli sabzavot, poliz va kartoshka mahsuloti;

mevali daraxtlarda – mevalar;

ozuqa ekinlarida – ko'k massa, pichan, senaj, silos, ildizmevalar.

Chorvachilikda:

chorva mollarida – har bir chorva moli turi va guruhi (asosiy poda, o'suvdagi yosh va boquvdagi katta yoshli mollar) bo'yicha olinadigan sut, nasl, tirik vazn o'sishi, jun, tirik vazn;

parrandachilikda – tuxum, tirik vazn o'sishi, tirik vazn;

pillachilikda – pilla mahsuloti.

Qishloq xo'jaligining o'simchilik va chorvachilik tarmoqlarida alohida kalkulyasiya ob'ekti hisoblangan ekin turlari va chorva guruhlaridan biologik xususiyatlarga ko'ra, bir emas, bir necha mahsulot olinishi mumkin. Ularni ishlab chiqarish maqsadi va xo'jalikda tutgan o'rni va ahamiyatiga ko'ra

- asosiy mahsulotlarga;
- yondosh mahsulotlarga;
- qo'shimcha mahsulot yoki chiqindilarga bo'lish mumkin.

Asosiy mahsulot – bu, ishlab chiqarish maqsadini ifoda qiladigan mahsulot va aynan shu mahsulotni yetishtirish uchun ishlab chiqarish, xatto, korxona tashkil etilgan bo'ladi.

Yondosh mahsulot – bu, asosiy mahsulotdan keyingi o'rinda turadigan ma'lum tovarlik ahamiyatga ega bo'lgan yoki korxonada biror maqsadda foydalanish imkoniga ega bo'lgan mahsulot.

Qo'shimcha mahsulot yoki chiqindilar – asosiy va yondosh mahsulotlar bilan birga shakllanadigan, korxona uchun unchalik ahamiyatga ega bo'lmagan, ammo biror maqsadda foydalaniladigan, shunga ko'ra qiymatga ega bo'lgan mahsulotlardir.

Ekin turlari va chorva mollaridan olingan yondosh va qo'shimcha mahsulotlar korxonada biror maqsadda foydalanilgan taqdirda shu kalkulyasiya ob'ektida jamlangan xarajatlarning bir qismi shu mahsulotlarga taalluqli bo'lishi kerak.

Ekin turini va chorva guruhini ifoda etuvchi kalkulyasiya ob'ektida jamlangan hamma xarajatlarni asosiy, yondosh va chiqindilar o'rtasida taqsimlash hamda shu mahsulotlar tannarxini aniqlashda quyidagi usullardan foydalaniladi:

- xarajatlarni ma'lum texnik-iqtisodiy jihatdan asoslangan koeffitsientlarga binoan taqsimlash. Bunda mahsulotlardan birining bir birligi bir-biriga, qolganlarining birligi shu birlikka nisbatan koeffitsientda ifolanadi. Masalan, boshqoqli ekinlar donining bir birligini 1,0 koeffitsientga, don chiqindilarini ulardan to'la ahamiyatli donlari miqdori 30 foiz bo'lganda – 0,3, somon yoki poxolni 0,08 koeffitsientga teng deb olsak, don chiqindilari – somon yoki poxolni shu koeffitsientlarga ko'ra, to'la ahamiyatli shartli don miqdoriga aylantirish mumkin.
- xarajatlarni asosiy, yondosh va qo'shimcha mahsulotlarning bozor baholarida aniqlangan qiymatlariga muttanosib taqsimlash orqali. Bozor bahosi bo'lmagan mahsulotlar qiymatini aniqlashda, shu mahsulotlarni oziqa birligi miqdori aniqlanib, bir oziqa birligi sifatida bir kilogramm suli miqdorida qabul qilingani uchun shu suli bahosida baholangan oziqa birligi qiymatidan foydalanish mumkin.
- xarajatlarning u yoki bu turdagi mahsulotga sarf bo'lishini ekspert yo'li bilan baholash va shunga ko'ra, xarajatlarning ayrim mahsulotdagi salmog'ini belgilash.

Chorva mollarining ma'lum turlari bo'yicha tirik vazn tannarxi o'stirilgan vazn, olingan buzoq qiymati, shu guruhdagi mollarning yil boshiga bo'lgan balans qiymati, yil davomida o'stirish va semirtirish uchun kirim qilingan mollar qiymati yig'indisini shu guruhdagi mollar vazni yig'indisiga bo'lish orqali aniqlanadi.

$$T_{T.B} = \frac{HB \cdot K + YBK + OEBK + K \cdot K}{HB \cdot B + YB + OEB + KB - H \cdot B}$$

$T_{T.V}$ - tirik vazn tannarxi;

IB.K - yil boshiga bo'lgan shu guruhdagi mollar qiymati;
IB.V - shu mollar vazni;
O'VK - o'stirilgan vazn qiymati;
UV - o'stirilgan vazn miqdori;
OBK - olingan buzoq qiymati;
OBV - olingan buzoq vazni;
K.K - kirim qilingan mollar qiymati;
KV - kirim qilingan mollar vazni;
N.V - nobud bo'lgan mollar vazni.

1 sentner tirik vazn tannarxiga ko'ra, sotilayotgan mol va parandalar tannarxi hamda asosiy podaga o'tkaziladigan va yil oxiriga qoladigan mollar tannarxlari yoki xarajatlari belgilanadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Ijtimoiy xarajatlar va tannarxning mohiyati nimalardan iborat?
2. Amaldagi nizomga ko'ra tadbirkorlik xarajatlari tarkibi qanday?
3. Ishlab chiqarish va davr xarajatlari tarkibi va ularni tarkibi nimalardan tashkil topgan?
4. Xarajatlarning turlanishi?
5. Mahsulot tannarxi tushunchasi va turlari?
6. O'simlikchilik mahsulotlari tannarxini kalkulyasiya qilish.

5-BOB.QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARINING UZOQ MUDDATLI AKTIVLARINI BOSHQARISH

- 1. Korxona aktivlarining iqtisodiy mohiyati, xususiyatlari va turkumlanishi.**
- 2. Korxona aktivlarini shakllantirish tamoyillari va manbalari.**
- 3. Aktivlarga bo'lgan talabni aniqlash va rejalashtirish.**
- 4. Korxona aktivlarini baholash usullari.**

Aktivlar - xo'jalik sub'ektining qiymat bahosiga ega bo'lgan moddiy va nomoddiy mulkidir. Uning tarkibiga, shu jumladan, pul mablag'lari va debitorlik qarzlari ham kiritiladi.

Aktivlar:

- ~ tovar-moddiy zahiralari ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishda alohida yoki boshqa aktivlar bilan birgalikda foydalanilishi;
- ~ boshqa aktivlarga almashtirilishi;
- ~ majburiyatlarni bajarish uchun foydalanilishi;
- ~ korxona mulkdorlari o'rtasida taqsimlanishi mumkin.

Aktivlar binolar, inshootlar va uskunalari singari jismoniy shaklga ega. Biroq, jismoniy shakl aktivning mavjud bo'lishi uchun zarur emas. Masalan, agar xo'jalik yurituvchi sub'ekt kelgusida ulardan foydalanishdan iqtisodiy foyda olishni kutayotgan bo'lsa patentlar va mualliflik huquqlari kabi nomoddiy mulk huquqlari ham aktivlardir.

Korxona aktivlari bir qator xususiyatlariga ko'ra turkumlanadi (21-chizma):

Amal qilish shakli bo'yicha:

- moddiy aktivlar;
- nomoddiy aktivlar;
- moliyaviy aktivlar turkumlanadi.

Moddiy aktivlar korxonaning buyumlashgan ko'rinishdagi aktivlarini o'z ichiga olib, uning tarkibiga quyidagilar kiradi:

- asosiy vositalar;
- tugallanmagan kapital quyilmalar;
- o'rnatiladigan asbob-uskunalar;
- ishlab chiqarish zaxiralari va yarimfabrikatlar;
- tugallanmagan ishlab chiqarish;
- tayyor mahsulot, tovarlar va boshqa moddiy aktivlar.

Nomoddiy aktivlar - moddiy ko'rinishga va shaklga ega bo'lmagan biroq ishlab chiqarish jarayonida bir yildan ortiq muddatda ishlatiladigan, hisobda boshlang'ich baxosiga ega bo'lgan va ishlab chiqarish jarayonida eskirib boradigan aktivlarga aytiladi. Ularga patent, litsenziya, savdo markasi, tovar belgilari va sanoat namunalari, tabiiy resurslardan foydalanish huquqlari, dasturiy ta'minot, franchayz, tashkiliy xarajatlar va boshqalar kiradi.

Moliyaviy aktivlar korxona egaligida bo'lgan quyidagi moliyaviy instrumentlardan tashkil topadi:

- milliy valyutadagi pul mablag'lari;
- xorijiy valyutadagi pul mablag'lari;
- barcha shakldagi debitor qarzlari;
- qisqa muddatli moliyaviy quyilmalar;

- uzoq muddatli moliyaviy quyilmalar.

2. Xo'jalik jarayonida qatnashish xususiyati va aylanish davomiyligiga ko'ra:

- uzoq muddatli aktivlar;
- joriy (qisqa muddatli) aktivlar farq qiladi.

21-chizma. Korxona aktivlarining operatsion aylanish davomiyligi bo'yicha turkumlanishi

3. Xizmat ko'rsatuvchi faoliyat turiga ko'ra:

- operatsion aktivlar;
- investitsion aktivlar farq qiladi.

Operatsion aktivlar korxonaning operatsion foyda olish maqsadida amalga oshiriladigan ishlab chiqarish va tijorat faoliyatida (operatsion faoliyatda) bevosita ishtirok etuvchi mol-mulki qiymatini aks ettiradi. Uning tarkibiga:

- ishlab chiqarishga taalluqli asosiy vositalar;
- operatsion faoliyatga taalluqli nomoddiy aktivlar;
- aylanma operatsion aktivlar qiymati (qisqa muddatli moliyaviy quyilmalar summasidan tashqari) kiritiladi.

Investitsion aktivlar korxonaning investitsion faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq mulkiy qiymatliklaridan tashkil topadi. Uning tarkibiga:

- tugallanmagan kapital quyilmalar;
- o'rnatiladigan asbob-uskunalar;
- uzoq muddatli moliyaviy quyilmalar;
- qisqa muddatli moliyaviy quyilmalar kiritiladi.

4. Aktivlarni shakllantirishning moliyaviy manbalariga ko'ra:

- yalpi aktivlar;
- sof aktivlar hisobga olinadi.

Yalpi aktivlar korxonaning o'z mablag'lari va qarz majburiyatlari evaziga hosil qilingan barcha mol-mulki qiymatini aks ettiradi.

Sof aktivlar faqatgina korxonaning o'z mablag'lari hisobiga shakllantirilgan mol-mulki qiymatidan tashkil topadi.

Sof aktivlar qiymati quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

Bu yerda: SA – sof aktivlar qiymati;

JA_{bk} – jami aktivlarning balans qiymati;

M – korxonaning jami majburiyatlari qiymati.

5. Aktivlarga egalik xususiyatiga ko'ra korxonaning:

- o'z aktivlari;
- ijaraga olingan aktivlari mavjud bo'ladi.

Korxonaning **o'z aktivlariga** doimiy ravishda uning egaligida bo'lgan va balansi tarkibida aks etadigan mol-mulki hisobga olinadi.

Ijaraga olingan aktivlar ijara (lizing) shartnomasi asosida vaqtinchalik korxona tasarrufida bo'lgan aktivlardan tashkil topadi.

6. Likvidlik darajasiga ko'ra aktivlarni quyidagi kategoriyalarga bo'lish qabul qilingan:

- absolyut likvidlikka ega aktivlar;
- yuqori likvidlikka ega aktivlar;
- o'rtacha likvidlikka ega aktivlar;
- past likvidlikka ega aktivlar;
- nolikvid aktivlar.

Qishloq xo'jaligi korxonalari aktivlarini shakllantirish uning hayotiylik davri rivojlanishining uch asosiy bosqichlari bilan bog'liq holda qaraladi:

1. Yangi korxonani tashkil etish. Bu aktivlarni shakllantirishning eng mas'uliyatli bosqichlaridan (dastlabki shakllantirish) biri hisoblanadi. Bu bosqichda yaratiladigan aktivlar korxonaning dastlabki sarmoyaga bo'lgan ehtiyojini, foydani shakllantirish sharoitlarini, aktivlarni aylanish tezligini va ularning likvidligi darajasini belgilab beradi.

2. Faoliyat ko'rsatayotgan korxonani kengaytirish, ta'mirlash va modernizatsiyalash. Korxona aktivlarining tarkibini kengaytirish va yangilash, uni rivojlantirish strategiyasidan kelib chiqib va bunda investitsion resurslarni shakllantirishning mavjud imkoniyatlardan foydalanishni ko'zlab amalga oshiriladi.

3. Faoliyatdagi korxonaning yangi tarkibiy bo'linmalarini (bo'linmalar, filiallar, sho'ba korxonalarni) shakllantirish. Korxonaning yangi bo'linmalarini, filiallarini yoki sho'ba korxonalarni tashkil etish jarayonida ularning faoliyat ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan aktivlar majmuasi sotib olinadi.

Korxona aktivlari aylanishi tezlashuvining shu aktivlar ishtirokida shakllanadigan operatsion foyda miqdorining proporsional o'sishiga olib kelishadi. Buni Dyupon modeli orqali ifodalash mumkin:

$$P_a = P_{mc} \times KA_{oa}$$

Bu yerda: R_a – aktivlar rentabelligi (operatsion foyda summasining operatsion aktivlar qiymatiga nisbati);

R_{ms} – mahsulot sotish rentabelligi (operatsion foydaning mahsulot sotish hajmiga nisbati);

KA_{oa} – operatsion aktivlarning aylanish tezligi koeffitsienti (sotilgan mahsulot qiymatining operatsion aktivlar qiymatiga nisbati).

5. Korxonaning bozor bahosini o'stirishga imkon yaratuvchi aktivlarning zamonoviy turlarini tanlash. Zamonaviy ishlab chiqarish vositalari va moliyaviy bozorlar korxona aktivlarini shakllantirishning bir qator muqobil variantlarini taklif etadi. Variantlardan qaysi birini tanlashda aktivlarning fan-texnika taraqqiyoti talablariga javob bera olishiga, unumdorligiga, sifati va istiqbolda foydalanish imkoniyatlariga, ko'p vazifalarni bajara olishiga va korxonaning bozor qiymatini oshirish imkoniyatlariga e'tibor qaratish lozim.

Korxona aktivlarini boshqarish tizimida aktivlarga bo'lgan talabni aniqlash va talab etiladigan aktivlar miqdori hamda tarkibini to'g'ri rejalashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Korxonani dastlabki tashkil etish bosqichida uning aktivlarga bo'lgan talabini hisoblashda aktivlarning asosan quyidagi turlari hisobga olinadi:

- asosiy vositalar;
- nomoddiy aktivlar;
- ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan tovar-moddiy ashyolar zaxiralari;
- pul mablag'lari;
- aktivlarning boshqa turlari.

Asosiy vositalarga bo'lgan talabni aniqlash ularning alohida guruhlari bo'yicha amalga oshiriladi:

- a) yer maydonlari;
- b) ishlab chiqarish binolari va inshootlari;
- v) ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan mashina va asbob-uskunalar;

g) operatsion faoliyatni boshqarish jarayonida foydalaniladigan binolar, mashina va uskunalar;

d) transport vositalari;

ye) ishchi va mahsuldor hayvonlar;

yo) ko'p yillik daraxtzorlar va boshqalar.

Birinchi bosqichda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish uchun hamda korxonaning bino-inshootlarini joylashtirish uchun zarur bo'ladigan yer hajmiga talab aniqlanadi. yer hajmini aniqlashda korxona joylashgan hududning reliefi, tabiiy shart-sharoitlar, suv bilan ta'minlanganlik darajasi, hududdagi mehnat resurslari zichligi, korxonaning ishlab chiqarish salohiyati, texnika bilan ta'minlanganlik va korxona muassislarining moliyaviy mablag'lari hisobga olinishi lozim.

Ikkinchi bosqichda ishlab chiqarish texnologik jarayonlarida ishtirok etadigan mashina va uskunalar, texnika vositalariga bo'lgan talab aniqlanadi. Buning uchun quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$T_{my} = \frac{MX_p \times K_{myo}}{V_{my}} + UK_{my}$$

Bu yerda: T_{mu} — mashina-uskunalarining muayyan turiga bo'lgan talabni qondirish uchun zarur mablag'lar qiymati;

MX_r — ushbu mashina-uskunalaridan foydalanib ishlab chiqarilishi rejalashtirilgan mahsulot hajmi;

K_{mub} — mashina-uskunalar muayyan turining birligi qiymati;

U_{mu} — mashina-uskunalar muayyan turining ish unumdorligi;

UK_{mu} — mashina-uskunalar muayyan turini o'rnatish (montaj) qiymati.

Uchinchi bosqichda operatsion faoliyatni boshqarish jarayonida ishtirok etadigan mashina va uskunalarga (texnika vositalari, mebel va ofis jihozlari, kompyuter jihozlari va hisoblash texnikalari, aloqa vositalari va boshq.) bo'lgan talab aniqlanadi.

To'rtinchi bosqichda bevosita ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etadigan bino va inshootlar, uzatuvchi qurilmalar hamda boshqaruv apparatini joylashtirish uchun binolarga bo'lgan talab aniqlanadi.

Beshinchi bosqichda asosiy podani tashkil etish uchun ishchi va mahsuldor hayvonlarga hamda ko'p yillik daraxtzorlarga bo'lgan talab aniqlanadi.

Nomoddiy aktivlarga bo'lgan talab operatsion faoliyatni amalga oshirish texnologiyasidan kelib chiqib aniqlanadi.

Tovar-moddiy zaxiralarga bo'lgan talabni aniqlashda ularning quyidagi turlari bo'yicha guruhlariga ajratish maqsadga muvofiq:

a) xom ashyo va materiallar;

b) o'stirishdagi va boquvdagi hayvonlar;

b) tayyor mahsulot.

Xom ashyo va material zaxiralari har bir turiga sarflanadigan kapitalga bo'lgan talabni aniqlashda ularni bir kunlik ishlatish sarflarini kunlarda ifodalangan zaxiralar me'yoriga ko'paytirish talab qilinadi. Xom ashyo va materiallar zaxiralari me'yorlarini yaratishda qishloq xo'jaligining mavsumiy xususiyatlarini e'tibordan qochirmaslik lozim. Chunki, qishloq xo'jaligida xom ashyo va materiallarga bo'lgan talab ekinlarni ekish va parvarishlash jarayonining eng tig'iz davrlarida (yerlarni haydash va ekishga tayyorlash, ekish mavsumi, hosilni parvarishlash va yig'ib olish davri) ko'payadi.

Chorvachilik tarmog'ida ishlab chiqarishning texnologik jarayonlari nisbatan bir me'yordaligi bilan farq qiladi. Bu holat chorva mollarini ozuqlantirish tizimi talablariga ko'ra ozuqa va yem-xashak zaxiralari bo'lishini talab etadi.

Bahor, yoz va erta kuz fasllarida o'stiruvdagi yosh va asosiy podadagi chorva mollari dalalarda haydab boqilishi tufayli yem-xashakka talab tabiiy yo'l bilan qondiriladi. Ammo, bu fasllarda qish oylari uchun yem-xashak jamg'arish talab etiladi va yem-xashak zaxiralarga bo'lgan talabni hisoblashda buni e'tiborga olish lozim. Shu bilan birga boquvdagi chorva mollari uchun yem-xashak zaxiralari yil fasllari bo'yicha nisbatan bir maromda bo'lishiga ham e'tibor berish lozim bo'ladi.

Chorvachilik tarmog'ida o'simlikchilik tarmog'ida yaratilgan mahsulotlarning bir qismi yem-xashak va ozuqa sifatida ishlatiladi.

O'stiruvdagi va boquvdagi hayvonlarga bo'lgan talab me'yorini aniqlashda korxonaning chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga, yosh va boquvdagi chorva mollarini ozuqa hamda yem-xashak bilan ta'minlash imkoniyatlariga, asosiy podani yangilab turish va to'ldirish uchun zarur bo'ladigan yosh hayvonlar salmog'iga, poda aylanmasida asosiy podadagi chorva mollarini yillik brak qilish me'yorlariga, boquvdagi chorva mollarini saqlash va semirtirish muddatlariga e'tibor beriladi.

Korxonaning **pul mablag'lariga bo'lgan talabini** aniqlashda:

- korxona ishchi va xodimlariga mehnat haqi to'lash bo'yicha pul mablag'lari sarfi;
- chetdan xom ashyo va materiallar xarid etish bo'yicha pul mablag'lari sarfi;
- xizmat ko'rsatuvchi korxonalarga to'lash bo'yicha pul mablag'lari sarfi;
- ijara haqi, sug'urta to'lovlari, aloqa va kommunal xizmatlar uchun to'lovlarga pul mablag'lari sarfi;
- qisqa muddatli kreditlar, turli kreditorlarga qarzlar, ta'sischi'larga to'lovlar bo'yicha pul mablag'lari sarfi;
- kelgusi davr xarajatlari bo'yicha pul mablag'lari sarfi;
- byudjetga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha pul mablag'lari sarfi va boshqa sarflar hisobga olinishi lozim.

Qishloq xo'jaligi korxonalarining pul mablag'lariga bo'lgan talabini aniqlashda tarmoqda aktivlar aylanishining juda sustligiga alohida e'tibor berish lozim. Chunki, mahsulot yetishtirishga qilinadigan sarf-xarajatlar davri deyarli 6-8 oylab davom etsada, tayyor mahsulotni sotish davri faqatgina yilning oxirlariga, ya'ni 6-8 oydan so'ng keladi va yil davomida korxona to'lovlar uchun pul mablag'lariga katta ehtiyoj sezadi.

Uzoq muddatli aktivlarga bo'lgan talab asosiy vositalarga, nomoddiy aktivlarga, tugallanmagan kapital quyilmalarga, o'rnatiladigan asbob-uskunalariga va uzoq muddatli investitsiyalarga bo'lgan talablarni jamlash orqali aniqlanadi. Xuddi shuningdek, qisqa muddatli (joriy) aktivlarga bo'lgan talab pul mablag'lariga, tovar-moddiy zaxiralarga, debitor qarzlarga va boshqa aylanma aktivlarga bo'lgan talablarni jamlash orqali aniqlanadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Korxona aktivlari tushunchasi nimani anglatadi?
1. Uzoq muddatli aktivlar qanday farqlanadi?
1. Korxona uzoq muddatli aktivlari qanday usullar yordamida baholanadi?
1. Korxonaning uzoq muddatli aktivlari tarkibi va ularni boshqarishning xususiyatlari nimalardan iborat?
1. Asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblash usullari va tartibi qanday? foydalanish ko'rsatkichlari.
1. Korxonaning mashina-uskunalariga bulgan talabini aniqlash tartibi qanday?

6-MAVZU: QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARINING JORIY AKTIVLARINI BOSHQARISH

Reja:

1. Korxonaning joriy (aylanma) aktivlari va ularni boshqarish xususiyatlari.

2. Aylanma aktivlarni aylanish sikli (davri).

Joriy aktivlarni boshqarish qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyatini boshqarishning muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Bu joriy aktivlarning quyidagi xususiyatlari bilan bog'liq:

1. Joriy aktivlarning moddiy-buyumlashgan va moliyaviy shakldagi tarkibi xilma-xil bo'lib, bu holat ularni boshqarishga individual yondoshishni talab qiladi.

2. Joriy aktivlar aylanish tezligining yuqoriligi bilan tasniflanadi.

3. Ular korxonaning to'lovga qobilligini, rentabelligini va boshqa moliyaviy natijalarini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Aylanma (joriy) aktivlar o'ziga xos bo'lgan bir qator ijobiy xususiyatlarga ega:

a) operatsion faoliyatning tovar va pul oqimlarini tartibga solish jarayonida ularni tezlik bilan bir shakldan ikkinchi shaklga aylanishtirish imkoniyati mavjud;

b) tovar va moliyaviy bozorlar kon'yukturasidagi o'zgarishlarga tezda moslasha olishi natijasida ular korxonaning operatsion faoliyatini osonlik bilan o'zgartirish va yangilashga imkon yaratadi;

v) ularning yuqori likvidlikka egaligi – zarur bo'lganda korxonaning qisqa muddatli majburiyatlari bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish uchun pul mablag'lariga aylantirish tezligi yuqoriligi bilan xarakterlanadi;

g) boshqarishning yengilligi – ularni aylanishi bilan bog'liq boshqaruv qarorlari qisqa muddat oralig'ida amalga oshiriladi.

Aylanma aktivlarga xos salbiy xususiyatlar quyidagilar bilan xarakterlanadi:

a) aylanma aktivlarning pul mablag'lari va debitorlik qarzlari ko'rinishida bo'lgan qismlari inflyasiya ta'sirida tezda o'zining qiymatini yo'qotish xususiyatiga ega;

b) vaqtinchalik bo'sh turgan aylanma aktivlar foydani shallantirish jarayonida ishtirok etmaydi (qisqa muddatli moliyaviy quyilmalarga qo'yilishi mumkin bo'lgan pul mablag'laridan tashqari), ortiqcha tovar-moddiy zaxiralar esa ularni saqlash bilan bog'liq qo'shimcha operatsion xarajatlarni amalga oshirishni talab etadi;

v) tovar-moddiy qiymatliklar zahiralari tabiiy kamayish natijasida yo'qotishlarga olib keladi;

g) debitorlik qarzlari ko'rinishidagi aylanma aktivlarning bir qismi tijorat sheriklarining sofdil emasligi oqibatida undirilmay qolib ketishi ham mumkin;

Joriy aktivlarni maqsadga muvofiq tarzda boshqarishni ta'minlash uchun ularni turkumlarga ajratib o'rganmoq lozim (22-chizma).

Joriy aktivlar shakllanishining moliyaviy manbalariga ko'ra korxonaning:

a) yalpi aylanma aktivlari;

b) sof aylanma aktivlari;

v) o'z aylanma aktivlari bir-biridan farq qiladi.

Yalpi aylanma aktivlar korxonaning o'z mablag'lari va majburiyatlari evaziga shakllantirilgan jami joriy aktivlarini ifoda etadi. Jami joriy aktivlar korxona balansini aktiv tomonining 2-qismi summasini aks ettiradi.

Sof aylanma aktivlar (yoki sof ishchi kapital) joriy aktivlarning korxonani o'z mablag'lari manbai va uzoq muddatli majburiyatlar hisobiga shakllantirilgan qismini aks ettiradi. Sof aylanma aktivlar summasi quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$CAA = KAA - KMM$$

Bu yerda: SAA – sof aylanma aktivlar;

JAA – jami aylanma aktivlar;

KMM – qisqa muddatli majburiyatlar.

O‘z aylanma aktivlari joriy aktivlarning korxonani o‘z mablag‘lari (xususiy kapitali) evaziga shakllantirilgan qismini ifodalaydi. Uni quyidagi formula bilan hisoblash mumkin:

$$VAA = JAA - UMM_{jca} - KMM$$

Bu yerda: *UAA* – o‘z aylanma aktivlari;

JAA – jami aylanma aktivlar;

UMM_{ja} – joriy aktivlarga sarflangan uzoq muddatli majburiyatlar summasi;

KMM – qisqa muddatli moliyaviy majburiyatlar.

Aylanma aktivlar tarkibiga quyidagilar kiradi:

Ishlab chiqarish zahiralari — mahsulot ishlab chiqarish yoki ishlarni bajarish yoki xizmatlarni ko‘rsatishda ishlatiladigan xom ashyo va materiallar, yonilg‘i, ehtiyot qismlar, sotib olingan yarim tayyor mahsulotlar va butlovchi qismlar, qurilish materiallari, idish va idishbop materiallar, inventar va xo‘jalik jihozlari, parvarish qilinayotgan va bo‘rdoqiga boqiladigan hayvonlar, materiallarni tayyorlash va xarid qilish bo‘yicha xarajatlar, materiallar qiymatidagi tafovutlarni o‘z ichiga oladigan ishlab chiqarish zaxiralaridan iborat.

Tayyor mahsulotlar — ishlab chiqarishning barcha bosqichlaridan o‘tgan, davlat standarti yoki texnik talabga javob beradigan, texnik nazorat bo‘limi tomonidan qabul qilingan, boshlang‘ich hujjat bilan rasmiylashtirilgan va omborga topshirilgan mahsulotlarga aytiladi.

Debitorlik qarzlari bo‘yicha muddati 12 oygacha yoki bir operatsion siklgacha korxonaga qarzdor bo‘lgan jismoniy va yuridik shaxslar, xaridor va buyurtmachilarning qarzlari, alohida bo‘linmalar qarzlari, sho‘ba va tobe xo‘jalik jamiyatlari qarzlari, xodimlarga berilgan bo‘naklar, yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo‘naklar, byudjetga soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari, davlat maqsadli jamg‘armalariga va sug‘urta bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari, ustav sarmoyasiga badallar bo‘yicha ta‘sischilarning qarzlari, boshqa operatsiyalar bo‘yicha xodimlar qarzlari hamda boshqa debitorlar qarzlari summolari aks ettirilishi kerak.

Pul mablag‘lari — kassadagi naqd pul mablag‘lari qoldig‘i, hisob-kitob raqamidagi, valyuta hisob raqamidagi pul mablag‘lari va boshqa pul mablag‘lari (bankdagi maxsus hisob raqamlar, pul ekvivalentlari, yo‘ldagi (o‘tkaziladigan) pul mablag‘lari) summalaridir.

Tugallanmagan ishlab chiqarish — ishlab chiqarishning barcha bosqichlaridan o‘tib tayyor mahsulotga aylanmagan yarim tayyor mahsulotlar, texnik nazoratdan o‘tmagan yoki buyurtmachi tomonidan qabul qilinmagan mahsulotlardan tashkil topadi. Masalan, joriy hisobot yilida kelgusi yil hosili uchun qilingan xarajatlar (kuzgi bug‘doy dalalarini haydash, urug‘ sepish, o‘g‘itlash, yaxob suvi berish va boshqa) tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarga misol bo‘ladi.

Qisqa muddatli moliyaviy qo‘yilmalar — ma‘lum bir muddatgacha (bir yildan oshmaydigan muddatga) saqlash uchun sotib olingan, erkin muomalada bo‘ladigan va muddati tugagach daromad ko‘rish maqsadida yana qaytadan pul mablag‘lariga aylantiriladigan qimmatli qog‘ozlarga qilingan moliyaviy qo‘yilmalardir. Qisqa muddatli davlat obligatsiyalarini yoki korxonalar tomonidan chiqarilgan foizli obligatsiyalarni xarid qilish bunga misol bo‘ladi.

Joriy aktivlarni baholash quyidagi ikki bahoning eng pasti bo‘yicha — balans tuzilayotgan sanadagi haqiqiy tannarxi bo‘yicha (sotib olish narxi yoki ishlab chiqarish tannarxi) yoki bozor bahosi bo‘yicha (sof sotish qiymati) amalga oshiriladi.

Aylanma aktivlarni boshqarish ularning operatsion siklini (davrini) shakllanish xususiyatlari bilan uzviy **bog‘liqlikka ega**.

Operatsion sikl - aylanma aktivlar jami yig'indisining to'liq aylanish davriga tengdir.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektning operatsion sikli - materiallarni xarid qilish, ishlab chiqarish va naqd pulga yoki osonlik bilan pulga aylantiriladigan moliyaviy aktivlarga sotish o'rtasidagi o'rtacha vaqtdir. Joriy operatsion aktivlarni tasnif etish maqsadida ayni shu tarmoq yoki faoliyatning shu turi uchun kattaroq davr muvofiqroq hisoblanmasa, bir yil operatsion sikl hisoblanadi.

Chizmadan ko'rinib turibdiki, aylanma aktivlarning operatsion siklda aylanish davri to'rt bosqichdan iborat. Bu davrlarda aylanma aktivlar o'z moddiy shaklini bir turdan ikkinchi turga o'tkazadi.

Birinchi bosqichda pul mablag'lari (qisqa muddatli moliyaviy quyilmalar shaklidagi pul ekvivalentlarini ham qo'shib) ishlab chiqarish maqsadlari uchun tovar-moddiy zahiralari tarkibiga kiruvchi aylanma vositalar (xom ashyo va materiallar) xarid etishga sarflanadi. **Ikkinchi bosqich** ishlab chiqarish jarayonidan iborat bo'lib, bu bosqichda xom ashyo va materiallar ishlov berilish natijasida tayyor mahsulotlar zaxirasiga aylantiriladi.

Uchinchi bosqichda tayyor mahsulot iste'molchilar va xaridorlarga sotilib, toki to'lov vaqti kelguncha debitorlik qarzlari sifatida e'tirof etiladi.

To'rtinchi bosqichda undirilgan debitorlik qarzlari yana qaytadan pul mablag'lariga aylantiriladi. Pul mablag'larining ehtiyojdan ortiq bir qismi zarurat tug'ilgunga qadar qisqa muddatli moliyaviy quyilmalar (qimmatli qog'ozlar) ko'rinishida saqlab turilishi mumkin.

Operatsion (ishlab chiqarish-tijorat) siklining korxona aylanma aktivlari hajmiga, tarkibi va samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillardan biri uning davomiyligidir. **Operatsion sikl davomiyligi** korxona pul mablag'larini moddiy xom ashyo zaxiralari xarid etishga sarflashdan boshlab, toki tayyor mahsulotni sotib, uni qaytadan pul mablag'lariga aylantirishgacha bo'lgan davrni qamrab oladi.

Korxonaning operatsion sikli davomiyligini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$OI_{\partial} = AI_{nm} + AI_{m3} + AI_{mm} + AI_{\partial K}.$$

Bu yerda: OIS_d – operatsion sikl davomiyligi, kunda;

AD_{pm} – pul mablag'larining aylanish davomiyligi, kunda;

AD_{mz} – xom ashyo va moddiy zaxiralarning aylanish davomiyligi, kunda;

AD_{tm} – tayyor mahsulotlar zaxirasining aylanish davomiyligi, kunda;

AD_{dk} – debitorlik qarzlarning aylanish davomiyligi, kunda;

Korxona aylanma aktivlarining aylanishi davomiyligini ifodalovchi operatsion siklni ikki tarkibiy qismga bo'lish mumkin:

1. Ishlab chiqarish sikli.

2. Moliyaviy sikl (pul mablag'larining aylanishi sikli).

Korxonaning ishlab chiqarish sikli ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan aylanma aktivlar tarkibidagi moddiy elementlarni (tovar-moddiy zaxiralarning) sotib olish sanasidan boshlab, toki ularni tayyor mahsulotga aylantirib xaridorlarga ortib jo'natishgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.

Ishlab chiqarish siklining davomiyligini (ICH_{S_d}) quyidagi formula orqali hisoblash mumkin:

$$ICH_{\partial} = AD_{m3} + AD_{muq} + AD_{mm}.$$

Bu yerda: AD_{tich} – tugallanmagan ishlab chiqarish zaxirasining aylanish davomiyligi, kunda;

Korxonaning moliyaviy sikli aylanma aktivlarga kiritilgan pul mablag'lari aylanishining to'liq davrini, ya'ni sotib olingan moddiy xom ashyo va materiallar uchun kreditorlik qarzlarni to'liq uzish sanasidan boshlab xaridorlarga yetkazib berilgan tayyor mahsulot uchun debitorlik qarzlarni to'liq undirishgacha bo'lgan davrni qamrab oladi.

Moliyaviy sikl davomiyligi (MS_d) quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$MII_{\partial} = HII_{\partial} + AD_{\partial K} + AD_{KK}$$

Bu yerda: AD_{KK} – kreditorlik qarzlarni aylanish davomiyligi, kunda

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Korxona aktivlari tushunchasi nimani anglatadi?
1. Uzoq joriy aktivlar qanday farqlanadi?
1. Korxona joriy aktivlari qanday usullar yordamida baholanadi?
1. Korxonaning joriy aktivlari tarkibi va ularni boshqarishning xususiyatlari nimalardan iborat?
1. Joriy aktivlarni aylanish sikli deganda nimani tushunasiz?.
1. Tovar-moddiy zaxiralarni boshqarish tartibi qanday?
1. Tovar-moddiy zaxiralar qiymati va tannarxi qanday aniqlanadi?

**7-BOB.QISHLOQ XO‘JALIGI KORXONALARINING XUSUSIY KAPITALINI
BOSHQARISH**

Reja:

- 1. Korxona xususiy kapitalining iqtisodiy mohiyati va turkumlanishi.**
- 2. Korxona xususiy kapitalining tarkibi va shakllanishi tartibi.**

Kapital – moliyaviy menejmentda doimiy foydalanib kelinayotgan iqtisodiy kategoriyalardandir, mamlakatni bozor munosabatlariga o‘tishi bilan o‘zini yangi mazmuniga ega bo‘ldi. Korxonaning tashkil etilishi va rivojlanishida bosh iqtisodiy negiz bo‘lib, kapital o‘zini mavjudligi va xarakati jarayonida davlat, mulkdorlar va ishchi xodimlar manfaatlarini ta'minlaydi.

Moliyaviy menejment yo‘nalishlarida kapital mablag‘lar qiymatini pul, moddiy va nomoddiy shaklda, uning aktivlarini shakllantirishda investitsiyalashtirilganligini xarakterlaydi(tavsiyalaydi).

Korxona kapitalini iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra, birinchi navbatda uning quyidagi tavsiflarini ko‘rib o‘tish zarur:

1. Kapital korxona ishlab chiqarishini asosiy omili hisoblanadi. Iqtisodiy nazariyada ishlab chiqarishni 3 ta asosiy omilini ajratib ko‘rsatish mumkin, korxonalar xo‘jalik faoliyatini ta'minlashda ishlab chiqarish - kapitali; yer va boshqa tabiiy resurslar; mehnat resurslari. Yagona ishlab chiqarish kompleksida barcha omillarni birlashtiruvchi omil bo‘lib, ishlab chiqarish kapitali muhim o‘rin egallaydi.

2. Kapital daromad keltiruvchi korxona moliyaviy resurslarini xarakterlaydi. Kapital bu o‘z o‘rnida – ssuda kapitali shaklida ishlab chiqarish omillaridan ajralmagan holda korxonaning daromadini shakllantirishni ta'minlovchi ishlab chiqarish(operatsion) faoliyat emas, balki moliyaviy (investitsiya) faoliyati sohasini belgilaydi.

3. Kapital korxonaning mulkdorlarini boyligini shakllantiruvchi bosh asosiy manba hisoblanadi. U bu zaruriy darajada boyligni shakllantirishni joriy va kelajakda ta'minlash uchun zarurdir. Joriy jarayonda ishlatilgan kapitalning bir qismi kapital

tarkibidan ajralib, uning mulkdorlarini (egalarini) kelajakda yo‘naltirilgan ehtiyojlarini ta‘minlaydi.

4. Korxona kapitali uning bozor qiymatini asosiy o‘lchovi hisoblanadi. Unda korxona jami o‘z kapitallarini aktivlarga nisbatan hajmini belgilaydi. Bu yerda ishlatilgan o‘z kapitallarini tarkibini chetdan jalb qilingan kapitallari qo‘shilgan tarkibi bilan foyda olishni belgilaydi.

5. Korxona kapitali dinamikasi uning xo‘jalik faoliyati samaradorligi darajasini muhim barometri hisoblanadi.

Kapital bu korxonaning nafaqat o‘zining ko‘p qirrali jihatlari mohiyatini xarakterlaydi, shuningdek ko‘p shaklli manbalari bilan ham yuzaga chiqadi. Umumiy tushunchalarda «Korxona kapitali» deganda hozirgi vaqtda turli shakldagi o‘nlab terminlar tushuniladi.

Korxonaga tegishligi bo‘yicha uning o‘z kapitali va jalb qilingan kapitallar shakllariga ajratiladi.

O‘z kapitali – bu korxonaning mablag‘lari umumiy qiymatini uning shaxsiy mablag‘lari va uning belgilangan aktivlarini shakllantirish uchun foydalaniladigan mablag‘larini bir qismini tashkil etadi (xarakterlaydi).

Qarzga olingan kapital – korxonani rivojlanishini moliyalashtirish uchun qaytarilish asosida beriladigan pul mablag‘lari yoki boshqa mulkiy qiymatliklarni jalb qilishni xarakterlaydi. Korxonada ishlatiladigan qarz kapitalini hamma shakli o‘zida uning belgilangan vaqtda qaytarilish talab qilinadigan moliviy majburiyatlarini bildiradi.

O‘z mablag‘larining manbai korxona ta‘sischilari tomonidan ustav kapitaliga badal sifatida kiritilgan hamda operatsion va moliyaviy faoliyat natijasida ishlab topilgan mablag‘laridan tashkil topadi. Ularga ustav kapitali, qo‘shilgan kapital, rezerv kapitali hamda taqsimlanmagan foyda kiradi.

Ustav kapitali - ta‘sis hujjatlarda belgilangan hissalarining pul ifodasidagi yig‘indisidir. Ustav kapitaliga hissa shaklida qo‘shiladigan moddiy va nomoddiy aktivlar ta‘sischilar kelishuviga yoki yuridik shaxs ijroiya organining qaroriga ko‘ra baholanadi va hisobga olinadi. Ustav kapitali korxona mulkini shakllantirishning asosiy manbai hisoblanadi. Ustav kapitalining summasi korxona ustavida yozilgan bo‘ladi va uni o‘zgartirish uchun korxona ustaviga o‘zgartirish kiritib, ustavni korxonalarni ro‘yxatga oluvchi organda qayta ro‘yxatdan o‘tkazish lozim bo‘ladi.

Qo‘shilgan kapital - aksiyalarni nominal qiymatidan baland narxlarda dastlabki sotishdan olinadigan emissiya daromadini, hamda ustav kapitalini shakllantirishda paydo bo‘ladigan kurs farqlarini aks ettiradi.

Rezerv kapitali - mol-mulkni qayta baholash chog‘ida hosil bo‘ladigan inflyasiya zahiralarini, shuningdek tekinga olingan mol-mulk qiymatini aks ettiradi. Shu bilan birga qonunchilikda belgilangan tartibda va miqdorda rezerv kapitalini tashkil qiladi. Rezerv kapitalini tashkil qilish uning miqdori va tartibi korxona ustavida yozilgan bo‘lishi lozim.

Taqsimlanmagan foyda - foydaning jamg‘arilayotganini ifodalaydi va mulkdorlarning qaroriga binoan ustav kapitaliga qo‘shilishi ham mumkin.

Kelgusi davr xarajatlari va to‘lovlari uchun zahiralar - hisobot yilida korxona tomonidan kelgusi davr xarajatlari va to‘lovlarni amalga oshirish hamda ularni ishlab chiqarayotgan mahsulot tannarxiga bir maromda qo‘shib borish uchun ichki imkoniyatlar hisobidan tuziladigan jamg‘armalardir. Ularga dargumon qarzar bo‘yicha rezervlar, ishchilarga mehnat ta‘tili uchun rezervlar, asosiy vositalar remonti uchun rezervlar va boshqalar kiradi.

Maqsadli tushumlar - ma‘lum bir maqsadlar uchun kelib tushayotgan pul mablag‘larini aks ettiradi. Ularga grant, subsidiya, a‘zolik badallari, maqsadli foydalanish uchun soliqlar bo‘yicha imtiyozlar va boshqalar kiradi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari korxonalari tashkil topishining dastlabki bosqichida bunday korxonani tashkil etayotgan mulkdor, agar bittadan ortiq bo'lsa, muassislarning sarmoyalariga tayaniladi. Odatda, kichik tadbirkorlik yo'nalishidagi mulkdorlar korxona tashkil topishi jarayonida to'lanishi lozim bo'lgan turli to'lovlarni o'z sarmoyalari hisobidan amalga oshiradilar.

Daromadlar va foyda – har bir xo'jalikning kengaytirilgan takror ishlab chiqarish sharoitlarini ta'minlash hamda o'z oldiga qo'yilgan maqsadi va vazifalarini amalga oshirish maqsadida pul jamg'armalari va boshqa daromadlarni shakllantirish, taqsimlash va foydalanish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlarni o'zida aks ettiradi. Foyda xo'jalikning o'z xodimlari, davlat va boshqa korxonalar oldidagi moliyaviy majburiyatlarini bajarish va ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadlariga ham xizmat qiladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Qishloq xo'jaligi korxonalarining xususiy kapitali tarkibi nimalardan iborat va ular qanday shakllanadi?
2. Korxonaning o'z mablag'lari manbalaridan foydalanish xususiyatlari nimalardan iborat?
3. Korxonalarning ustav kapitali qanday shakllanadi?
4. Operatsion foydani shakllanish tartibi va taqsimlash mexanizmi qanday?

8-BOB.QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARINING MAJBURIYATLARINI BOSHQARISH

Reja:

1. Majburiyatlarning iqtisodiy mohiyati va turlari.
2. Qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyatiga kreditlash jalb etish shakllari va manbalari.
3. Byudjetdan tashqarii jamg'armalar va kredit ittifoqlarining mablag'larini jalb etish.

Majburiyatlarga korxonaning qarzga jalb qilingan mablag'lari kiradi. Ular ikkiga: qisqa va uzoq muddatli majburiyatlarga bo'linadi.

Qisqa muddatli (joriy) majburiyatlarga hisobot kunidan boshlab 12 oy davomida hisob-kitob qilinishi lozim bo'lgan majburiyatlar kiradi.

Qisqa muddatli kreditorlik qarzlari, jumladan:

- mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga joriy qarzlari;
- ish xaqi bo'yicha xodimlardan qarzlari;
- qisqa muddatli bank kreditlari;
- ajratilgan bo'linmalar va sho'ba korxonalarga qisqa muddatli qarzlari;
- soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha qisqa muddatli qarzlari;
- kechiktirilgan daromadlarning joriy qismi;
- ta'sischi bo'lgan qarz;
- olingan avanslar;
- boshqa qisqa muddatli majburiyatlarning joriy qismi kiradi.

Uzoq muddatli asosda (bir yildan oshiq muddatda) aylanma mablag'lar hisobidan pul bilan ta'minlanadigan, foizni to'lashni talab qiluvchi majburiyatlar uzoq muddatli majburiyatlar hisoblanadi. Uzoq muddatli majburiyatlarga:

- uzoq muddatli bank kreditlari;
- mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga uzoq muddatli qarzarlar;
- ajratilgan bo'linmalar va sho'ba korxonalarga uzoq muddatli qarzarlar;
- uzoq muddatli kechiktirilgan daromadlar;
- soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha uzoq muddatli qarzarlar va boshqa qarzarlar kiradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo'jaligi korxonalarining majburiyatlaridan unumli foydalanish korxonalarining to'lovga qobilligini belgilashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi

Qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyatini moliyalashtirishda o'z mablag'lari yetarli bo'lmagan holatlarda chetdan qarzga mablag' jalb etishga to'g'ri keladi.

Tijorat banklari tomonidan kredit berish muddatlilik qaytarishlik, to'lovlilik va ta'minlanganlik tamoyillari asosida amalga oshiriladi.

Muddatlilik tamoyili shuni bildiradiki, kreditlar taqdim etish muddatiga ko'ra qisqa, o'rta va uzoq muddatliga ajratiladi.

Qisqa muddatli kreditlar odatda joriy ishlab chiqarishni aylanma mablag'lar bilan ta'minlash maqsadida, nisbatan yuqori foizlarda va bir yilgacha muddatda qaytarish sharti bilan beriladi.

O'rta muddatli kreditlar yildan 5 yilgacha muddatga, ishlab chiqarishning xususiyati sarflangan investitsiyalarni shu muddat ichida to'la qoplash imkonini beradigan sohalariga beriladi.

Uzoq muddatli kreditlar 5 yildan ko'p muddatga, investitsion loyihalarni moliyalashtirish uchun, odatda ishlab chiqarishni texnik qurollantirish, qayta qurish va kapital ta'mirlash maqsadlariga beriladi.

Qaytarishlik tamoyili qarzdorning kreditni to'liq hajmda kreditorga qaytarilishi bo'yicha javobgarligini anglatadi.

To'lovlilik tamoyiliga ko'ra kreditlar qarzdorga ma'lum bir foiz to'lovlarini to'lash sharti bilan beriladi.

Ta'minlanganlik tamoyili kreditlash shartlariga ko'ra qarzdor kreditorga kreditni qaytarish kafolatini ta'minlashi lozimligidan kelib chiqadi. Chunki, qarzdor kreditni qaytarishdan bosh tortganda, kreditor qarzdorning (yoki unga kafolat, kafillik bergan yuridik shaxsning) mol-mulkidan tegishli miqdoridagi mablag'larni o'z tasarrufiga olish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

Bank kreditlarini ajratishning bir qator shartlari mavjud. Masalan, ajratilayotgan kreditning maksimal summasi, foiz stavkasi darajasi, asosiy qarzni va foiz to'lovlarini qaytarish jadvali, ajratiladigan imtiyozli davr, kredit berilayotgan muddat kabi bir qator shartlar kredit shartnomasining asosini tashkil etadi.

Tijorat banklari tomonidan fermer xo'jaliklarini, kichik va o'rta biznes sub'ektlarini milliy valyutada kreditlash O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2000 yil 7 martda ro'yxatga olingan «Tijorat banklari tomonidan fermer xo'jaliklarini, kichik va o'rta biznes sub'ektlarini milliy valyutada kreditlash to'g'risida»gi 907-sonli tartibga muvofiq amalga oshiriladi.

Berilayotgan kreditlarning muddati kreditlanag'tgan tadbirning qoplanishiga bog'liq chunonchi:

- kichik va o'rta biznes sub'ektlariga aylanma mablag'larni to'ldirish uchun beriladigan kreditlar, odatda, 1 yilgacha muddatga;

- qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish uchun fermer xo'jaliklariga, shuningdek, yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan dehqon xo'jaliklariga aylanma mablag'larni to'ldirish uchun beriladigan kreditlar, odatda, 2 yildan kam bo'lmagan muddatga beriladi;

- kichik va o'rta biznesning barcha subektlariga, shu jumladan, yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan fermer va dehqon xo'jaliklariga investitsion loyihalarni moliyalash uchun beriladigan kreditlar, qaytarish muddatini uzaytirish huquqisiz, 5 yilgacha muddatga berilishi mumkin.

- dehqon na fermer xo'jaliklariga qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etishga mo'ljallangan aylanma mablag'larni to'ldirish uchun berilgan kreditlarni qaytarish muddati, bu muddat uzaytirilishini hisobga olgan holda, fors-major xolatlarini istisno qilganda, 30 oydan;

- fermer va dehqon xo'jaliklarining o'z aylanma mablag'larini to'ldirish maqsadida, qishloq xo'jaligiga bog'liq bo'lmagan faoliyati uchun olingan kreditdan foydalanish muddati, uni qaytarish muddati uzaytirilishini hisobga olgan holda, 12 oydan oshmasligi kerak.

Kichik biznesni moliya-kredit tizimi orqali qo'llab-quvvatlash birinchi navbatda imtiyozli kredit berish mexanizmini qo'llash hamda kafolatlash jarayonini rivojlantirish bilan xarakterlanadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 19 may 195-sonli «Tijorat banklarining kichik va o'rta tadbirkorlikni rivojlantirishda qatnashishini rag'batlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori bilan tijorat banklarining kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga faol qatnashishlarini ta'minlash maqsadida «imtiyozli kredit berish maxsus jamg'armasi tashkil etiladi. Banklar foydasining 25 foizgacha miqdorini ajratish hisobiga jamg'arma mablag'lari shakllantiriladi.

Kreditlarni olish uchun qarz oluvchilar bankka quyidagi hujjatlar (kredit paketi)ni taqdim etadilar:

- kredit buyurtmasi;
- qarz oluvchining bank hisob varag'idagi pul tushumlari taxmini (pul oqimi) ko'rsatilgan biznes-rejasi;
- oxirgi xisobot sanasiga davlat soliq xizmatining mahalliy (tuman) idorasi tomonidan tasdiqlangan buxgalterlik balansi;
- debitorlik va kreditorlik qarzlar haqidagi ma'lumotnoma, shuningdek, 90 kundan ortiq muddatdagi qarzdorlikni solishtirma dalolatnomalari;
- moliyaviy natijalar xaqida xisobot;
- ta'minot shakllaridan birini.

Imtiyozli kredit berish jamg'armasi mablag'lari hisobidan qishloq xo'jaligiga kreditlar berish faqatgina yuridik shaxs maqomidagi dehqon xo'jaligi va fermer xo'jaliklariga, muddatlari kredit berilayotgan tadbirlarning o'zini qoplashga muddatiga bog'liq holda beriladi, chunonchi:

- qishloq, xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish uchun aylanma mablag'larni to'ldirishga kreditlar fermer xo'jaliklariga, shuningdek, yuridik shaxs bo'lgan dehqon xo'jaliklariga, qoidaga ko'ra, kamida 2 yil muddatga beriladi;

- investitsiya loyihalarini mablag' bilan ta'minlash uchun kreditlar yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan fermer va dehqon xo'jaliklariga to'lov muddatini kechiktirish huquqisiz 5 yilgacha muddatga berilishi mumkin.

Jamg'arma mablag'lari hisobidan berilgan kreditlardan foydalanganlik uchun foiz stavkasi miqdori O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalash bo'yicha

kredit berilgan kundagi belgilangan stavkasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 6 maydagi 78-son qarori bilan tasdiqlangan «Mikrokreditlar berish va mikrolizing xizmatlari ko'rsatish tartibi to'g'risidagi vaqtinchalik nizom»ga ko'ra "Mikrokreditbank"ning kredit liniyalari hisobidan tadbirkorlik sub'ektlariga mikrokreditlar berish xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, yakka tartibdagi mehnat faoliyatini, oilaviy biznesni va kasanachilikni rivojlantirish yo'li bilan yangi ish o'rinlari yaratish, aholi keng qatlamlarining, shu jumladan qishloq joylarda, moliyaviy resurslardan foydalana olishini ta'minlash maqsadida amalga oshiriladi.

Foydalanish yo'nalishlariga ko'ra mikrokreditlar:

- boshlang'ich (start) sarmoyasini shakllantirish uchun;
- biznesni rivojlantirishga (kengaytirishga) va aylanma mablag'larni to'ldirishga beriladi.

Boshlang'ich (start) sarmoyasini shakllantirish uchun mikrokredit yiliga 5 foiz stavka bo'yicha 18 oy muddatgacha:

- eng kam oylik ish haqining 50 baravarigacha miqdorda yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan tadbirkorlik sub'ektlari uchun;

- eng kam oylik ish haqining 100 baravarigacha miqdorda mikrofirmalar va dehqon xo'jaliklari uchun (yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan);

- eng kam oylik ish haqining 200 baravarigacha miqdorda fermer xo'jaliklari uchun beriladi.

Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik sub'ektlariga mikrokredit boshlang'ich (start) sarmoyasini shakllantirish uchun ular kredit olish uchun davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan boshlab 6 oy mobaynida buyurtma taqdim etilganda beriladi.

Mikrokreditlar biznesni rivojlantirish (kengaytirish) va aylanma mablag'larni to'ldirish uchun kichik tadbirkorlik sub'ektlariga (mikrofirmalar, kichik korxonalar, dehqon va fermer xo'jaliklariga) O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalashtirish stavkasidan yuqori bo'lmagan foiz stavkasi bo'yicha, 24 oy muddatgacha, eng kam oylik ish haqining 500 baravarigacha miqdorda beriladi.

Imtiyozli mikrolizing bo'yicha xizmatlar kichik biznes sub'ektlariga 3 yilgacha muddatgacha, Markaziy bank qayta moliyalashtirish stavkasining 50 foizidan yuqori bo'lmagan stavka bo'yicha, eng kam oylik ish haqining 2000 baravarigacha miqdorda ko'rsatiladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Fermer xo'jaliklarining majburiyatlari nimalardan iborat va ular qanday shakllanadi?

2. Fermer xo'jaligining majburiyatlaridan foydalanish xususiyatlari nimalardan iborat?

3. Fermer xo'jaligini kreditlash shakllari va tamoyillarini izohlab bering?

4. Fermer xo'jaliklari faoliyatiga mikrokreditlar jalb etish qanday tartibda amalga oshiriladi?

5. Fermer xo'jaliklari faoliyatiga boshlang'ich sarmoya sifatida kreditlar jalb etish qanday tartibda amalga oshiriladi?

6. Fermer xo'jaliklarini davlat ehtiyojlari uchun paxta va g'alla yetishtirish xarajatlarini imtiyozli kreditlash mexanizmi nimalardan iborat?

7. Fermer xo'jaliklarining yer ijarasi huquqi va bo'lg'usi hosilni garovga qo'yib kreditlash tartibi qanday?

8. Fermer xo'jaliklari faoliyatini byudjetdan tashqari jamg'armalarning kredit liniyalari hisobidan kreditlash shartlari nimalardan iborat?

9. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida fermer va dehqon xo'jaliklarini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish yo'llari nimalardan iborat?

9-MAVZU.INVESTITSİYALARNI BOSHQARISH ASOSLARI

Reja:

1. Investitsiyalarning iqtisodiy mohiyati va turkumlanishi.

2. Korxona va tarmoqning investitsion jozibadorligini baholash mezonlari va usullari.

3. Qishloq xo'jaligi korxonalarining investitsion siyosatini shakllantirish bosqichlari va mexanizmi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarini rivojlantirishda ishlab chiqarishga investitsiyalar jalb etishning ahamiyati beqiyosdir. Investitsiya lotincha "investor" so'zidan olingan bo'lib, kelgusida sarflangan mablag'larni o'stirish, foyda olish va ayrim ijtimoiy muammolarni yechish maqsadida mablag' sarflamoqni, ya'ni kapital xarajatlarning hajmi, tarkibi va uning asosiy yo'nalishlarini ifoda etadi.

"Investitsiya" tushunchasi "kapital quyilmalar" tushunchasidan farq qiladi. "Kapital quyilmalar" asosan uzoq muddatli moddiy va nomoddiy aktivlar yaratishga sarflangan kapital xarajatlarni anglatadi. "Investitsiya" tushunchasi esa keng ma'noli bo'lib, uzoq muddatli moddiy va nomoddiy aktivlardan tashqari moliyaviy instrumentlarga, o'zga korxonalar mulkiga ulush qo'shishga va aylanma aktivlarni o'stirishga mablag'lar sarflash ma'nosini ham anglatadi. Shundan kelib chiqqan holda "kapital quyilmalar"ni investitsiyaning tarkibiy qismi sifatida talqin etish o'rinlidir.

O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 24 dekabrda 719-I-sonli "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonunining 2-bandiga muvofiq: "investitsiyalar - iqtisodiy va boshqa faoliyat ob'ektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga doir huquqlardan iborat".

Ushbu qonunda investitsiya va investitsion faoliyatga oid quyidagi tushunchalarga ta'rif berilgan:

– investitsiya faoliyati - investitsiya faoliyati sub'ektlarining investitsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq harakatlari majmui;

– investor - o'z mablag'larini, qarzga olingan va jalb etilgan mablag'larni, mulkiy boyliklarni va ularga doir huquqlarni, shuningdek intellektual mulkka doir huquqlarni investitsiya faoliyati ob'ektlariga investitsiyalashni amalga oshiruvchi investitsiya faoliyati sub'ekti;

– investitsiya faoliyati ishtirokchisi - investorning buyurtmalarni bajaruvchi sifatida investitsiya faoliyatini ta'minlovchi investitsiya faoliyati sub'ekti;

– reinvestitsiyalar - investorning faoliyati natijasida olingan foydani (daromadni) muomalaga kiritish.

1. Investitsiya kiritish shakliga ko'ra real va moliyaviy investitsiyalar farq qiladi.

Real investitsiyalar deganda sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish kabi iqtisodiyotning real tarmoqlariga kapital kiritish tushuniladi.

Moliyaviy investitsiyalar - qimmatli qog'ozlar chiqarish va realizatsiya bilan bog'lik ishlar uchun sarflanadigan mablag'lardan iborat bo'ladi.

2. Investitsiyalar kiritilayotgan ob'ektiga ko'ra kapital, innovatsiya va ijtimoiy investitsiyalarga bo'linadi.

Kapital investitsiyalar jumlasiga asosiy fondlarni vujudga keltirish va takror ishlab chiqarishga, shuningdek moddiy ishlab chiqarishning boshqa shakllarini rivojlantirishga qo'shiladigan investitsiyalar kiradi.

Innovatsiya investitsiyalari jumlasiga texnika va texnologiyalarning yangi avlodini ishlab chiqish va o'zlashtirishga qo'shiladigan investitsiyalar kiradi.

Ijtimoiy investitsiyalar jumlasiga inson salohiyatini, malakasi va ishlab chiqarish tajribasini oshirishga, shuningdek nomoddiy ne'matlarning boshqa shakllarini rivojlantirishga qo'shiladigan investitsiyalar kiradi.

3. Mulkchilik shakliga ko'ra davlatning investitsion dasturlari orqali iqtisodiyotning strategik ob'ektlarini rivojlantirish maqsadida kiritiladigan davlat investitsiyalari va xususiy mulk egalari tomonidan kiritiladigan xususiy investitsiyalar mavjud.

4. Hududiy mansubligiga ko'ra mamlakatning ichki investorlari tomonidan kiritiladigan milliy investitsiyalar va chet el fuqarolari tomonidan kiritiladigan xorijiy investitsiyalarni ajratib ko'rsatish mumkin.

Investorlar investitsiyalarni quyidagi yo'llar bilan amalga oshirishlari mumkin:

- yuridik shaxslar tuzish yoki ularning ustav jamg'armalarida (kapitallarida) ulushli ishtirok etish, shu jumladan mol-mulkni yoki aksiyalarni olish;

- qimmatli qog'ozlarni, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi rezidentlari tomonidan emissiya qilingan qarz majburiyatlarini olish;

- konsessiyalarni, shu jumladan tabiiy resurslarni qidirish, ishlab chiqish, qazib olish yoki ulardan foydalanishga bo'lgan konsessiyalarni olish;

- mulk huquqini, shu jumladan yerga hamda boshqa tabiiy resurslarga egalik qilish va ulardan foydalanish (shu jumladan ijara asosida foydalanish) huquqini qonun hujjatlariga muvofiq olish.

Investitsiya resurslari jumlasiga quyidagilar kiradi:

- pul va boshqa moliyaviy mablag'lar, shu jumladan kreditlar, paylar, aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar;

- ko'char va ko'chmas mol-mulk (binolar, inshootlar, uskunalar va boshqa moddiy boyliklar) hamda ularga doir huquqlar;

- intellektual mulk ob'ektlari, shu jumladan texnikaviy hujjatlar tarzida tuzilgan texnikaga, texnologiyaga, tijoratga oid va boshqa bilimlar majmui, u yoki bu turdagi ishlab chiqarishni tashkil etish uchun zarur bo'lgan bilimlar va ishlab chiqarish tajribasi, nou-xau;

- yerga va boshqa tabiiy resurslarga, binolar, inshootlar, uskunalariga egalik qilish va ulardan foydalanish huquqi, shuningdek mulk huquqidan kelib chiquvchi ashyoviy huquqlar;

- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa boyliklar.

Investorlar oldida doimo kelgusida eng yuqori iqtisodiy samaradorlikni ta'minlaydigan va barqaror rivojlanish sur'atlariga ega bo'ladigan istiqbolli investitsiya ob'ektlari va loyihalarini tanlash vazifasi turadi.

Alohida investitsiya ob'ektlari yoki investitsiya kiritiladigan korxona va tarmoqning investitsion jozibadorligini baholash ko'p omillarga bog'liq bo'lib, har qanday tarmoq, hudud, korxona yoki alohida ob'ektning investitsion jozibadorligi baholashda eng avvalo sarflangan kapitalning iqtisodiy samaradorligi nuqtai-nazaridan yondoshish qabul qilingan.

Qishloq xo'jaligi korxonalariga kiritiladigan investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholashda tarmoqqa va qishloq xo'jaligi korxonasi joylashgan hududga xos bo'lgan quyidagi shart-sharoitlari e'tiborga olinadi:

I. Respublika agrar tarmog'ining investitsion jozibadorligi quyidagi asosiy elementlar bo'yicha baholanishi mumkin:

1.1. Iqtisodiyotning agrar tarmog'ini rivojlanish istiqbollari quyidagi ko'rsatkichlar asosida baholanadi:

- ~ tarmoqning mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rni va ahamiyati;
- ~ tarmoqning iqtisodiy turg'unlik yoki inqiroz holatlariga barqarorligi;
- ~ tarmoqning ijtimoiy ahamiyati;
- ~ tarmoq rivojlanishining o'z mablag'lari bilan ta'minlanganligi darajasi.
- ~ tarmoq rivojlanishining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi darajasi.

1.2. Tarmoq korxonalarining o'rtacha rentabellik darajasini quyidagi koeffitsientlar yordamida baholash mumkin:

- ~ aktivlar rentabelligi koeffitsienti;
- ~ xususiy kapital rentabelligi koeffitsienti;
- ~ mahsulot sotish rentabelligi koeffitsienti;
- ~ joriy ishlab chiqarish xarajatlari rentabelligi koeffitsienti.

1.3. Tarmoqqa xos bo'lgan investitsiya tavakkalchiligi xatarlari quyidagi ko'rsatkichlar orqali baholanishi mumkin:

- ~ tarmoq bo'yicha o'rtacha xususiy kapital rentabelligining tahlil etilayotgan yillar bo'yicha variatsiyasi koeffitsienti;
- ~ tarmoqdagi korxonalar rentabelligi ko'rsatkichlarining variatsiyasi koeffitsienti;
- ~ tarmoqdagi raqobat darajasi;
- ~ tarmoqda mahsulotlar baholarining inflyasiyaga barqarorligi darajasi;
- ~ tarmoqning tabiiy-iqlimiy shart-sharoitlar, ob-havo va boshqa tabiat injiqliklariga bog'liqlik darajasi;
- ~ tarmoqda kapitalning aylanishi tezligi

1.4. Mamlakat qonunchiligida mazkur tarmoqqa kiritiladigan investitsiyalarga berilgan imtiyozlar va kafolatlar tizimi investorlarni rag'batlantiruvchi eng muhim omillardan hisoblanadi. Bu turdagi imtiyozlar va kafolatlar tizimiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ~ investorlar mol-mulkining daxlsizligi va olingan daromadlarni (foydani) erkin tasarruf etish huquqlarining kafolatlari;
- ~ soliq va bojxona imtiyozlari;
- ~ monopoliyaga qarshi choralarini qo'llash;
- ~ imtiyozli kredit siyosati va narx belgilash siyosatini o'tkazish;
- ~ davlat investitsiya dasturiga kiritilgan markazlashgan investitsiya loyihalarini jalb etishga hukumat kafolatlarini berish va boshqalar.

II. Investitsiya ob'ekti joylashgan hududning investitsion jozibadorligini baholash quyidagi asosiy elementlar bo'yicha amalga oshiriladi (-chizma):

2.1. Hududning umumiy iqtisodiy rivojlanish darajasi quyidagi analitik ko'rsatkichlar asosida baholanadi:

- ~ hududning mamlakat yalpi ichki mahsulotini yaratishdagi ulushi;
- ~ hududda aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat va qishloq xo'jaligi mahsuloti qiymati;
- ~ hududda aholi real daromadlarining o'rtacha darajasi;
- ~ keyingi bir necha yilda hududga kiritilgan kapital quyilmalar hajmi va boshqalar.

2.2. Hududning ishlab chiqarish va resurs salohiyati darajasi quyidagi ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi:

- ~ hududda yer va suv resurslarining hajmi va foydalanish shartlari;
- ~ mavjud moddiy xom ashyo va energetik resurslarning aniqlangan turlari va zaxiralari hajmi, joylashgan o'rni va foydalanish uchun qulayligi;
- ~ hududda asosiy mahalliy qurilish materiallarini ishlab chiqarish hajmlari;

- ~ hududda asosiy energetik resurslarni ishlab chiqarish hajmi;
- ~ mavjud mehnat resurslari hajmi, malakasi, zichligi va boshqalar.

2.3. Hududda ishlab chiqarish va bozor infratuzilmalarining rivojlanish darajasi quyidagi ko'rsatkichlar yordamida baholanadi:

- ~ hududda pudratchi qurilish tashkilotlarining soni;
- ~ hududda asosiy mahalliy qurilish materiallari va energetik resurslarni yetkazib beruvchi bozorlarning mavjudligi;
- ~ temir yo'l tarmoqlari va qattiq qoplamali avtomobil yo'llarining zichligi (har 100 kv km.ga);
- ~ hududda tovar va xom ashyo birjalari, brokerlik va ko'chmas mulk agentliklarining soni va xizmat ko'rsatish darajasi;
- ~ xorijiy hamkorlar ishtirokidagi qo'shma korxonalar va chet el korxonalarining soni;
- ~ bank, moliya, audit, sug'urta va konsalting muassasalarining soni va rivojlanish darajasi;
- ~ aloqa, transport va boshqa xizmat ko'rsatish tarmoqlarining rivojlanish darajasi va boshqalar.

2.4. Hududning demografik xususiyatlari quyidagi ko'rsatkichlar asosida baholanadi:

- ~ mamlakatning jami aholisi tarkibida hudud aholisining salmog'i;
- ~ hududdagi jami aholining ishlab chiqarishda band bo'lgan qismi salmog'i;
- ~ aholining hududiy joylashuvi va zichligi;
- ~ mehnatga yaroqli aholining o'rtacha yoshi, malaka darajasi va boshqalar.

2.5. Hududning investitsion faoliyat uchun xavfsizlik darajasi tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy omillar bilan bog'liq quyidagi ko'rsatkichlar orqali baholanishi mumkin:

- ~ hududning tabiiy ofatlar va zilzila o'choqlaridan xoliligi;
- ~ tabiiy-iqlimiy shart-sharoitlarning qulaylik darajasi;
- ~ hududda iqtisodiy jinoyatchilik va korrupsiya holatlarining rivojlanganlik darajasi;
- ~ keyingi yillarda qurilishi oxiriga yetkazilmagan kapital qurilishlar salmog'i;
- ~ hududda radiatsiya darajasining o'rtacha foni;
- ~ hududda ijtimoiy tanglik holatlaridan xoliligi va boshqalar.

Tarmoq yoki hududning investitsion jozibadorligini baholash korxonalarda investitsion qarorlar qabul qilish va ularni amalga oshirishning asoslanganligini oshiradi va investitsiyalar samaradorligini ta'minlashga imkon yaratadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Investitsiya va investitsion faoliyat deganda nimani tushunasiz?
2. Investitsiyalarni amalga oshirish turlari qanday turkumlanadi?
3. Kimlar investor hisoblanadi?
4. Investitsiya ob'ekti va resurslari nimalardan iborat?
5. Chet el investitsiyalarini jalb etish mexanizmi qanday tartibga solinadi?
6. Chet ellik investorlar huquqlarini himoya qilish va kafolatlash mexanizmi nimalarni o'z ichiga oladi?
7. Chet ellik investorlarga qanday imtiyozlar belgilangan?
8. Investitsion faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlash mexanizmi qanday?

10-BOB.QISHLOQ XO‘JALIGI KORXONALARI FAOLIYATINING MOLIYAVIY TAHLILI

1. Moliyaviy tahlilning turlari va ularni o‘tkazish uslubi.

2. Kapital tarkibi ko‘rsatkichlari.

3. To‘lov qobiliyati (likvidlik) ko‘rsatkichlari tahlili.

Korxona moliyaviy holatining tahlili nafaqat ushbu korxonaning o‘zi uchun, balki uning turli tuman sheriklari, mulkdorlari va moliyaviy idoralar uchun ham katta ahamiyatga ega.

Balans likvidligining tahlili joriy to‘lov qobiliyatini baholash, kelgusida moliyaviy muvozanatni va to‘lov qobiliyatini saqlab qolishning imkoniyati haqida xulosa berishi kerak.

Moliyaviy koeffitsientlarning tahlili bu korxonaning moliyaviy holatini raqiblarning moliyaviy holatiga solishtirish, hamda bir qator hisobot yillari uchun moliyaviy holat dinamikasining tadqiqotini o‘tkazishga imkon beradi.

Moliyaviy tahlil tizimi va uning asosiy usullari. Bozor sharoitida korxonalarning aniq moliyaviy qarorlarini qabul qilishda qator moliyaviy tahlil tizimi va usullari keng qo‘llaniladi. Yuqori samarali moliyaviy qarorlarga ega bo‘lish moliyaviy menejmentning qo‘yidagi tahlil tizimi va usullari tarkibiga bog‘liq bo‘ladi:

- hisobotni o‘qish;
- gorizontal(yoki trendli) moliyaviy tahlil;
- vertikal(yoki tarkibiy) moliyaviy tahlil;
- taqqosli moliyaviy tahlil;
- integral moliyaviy tahlili;
- moliyaviy koeffitsientlar tahlili.

Hisobotni o‘qish va ushbu shakllarda berilgan mutlaq miqdorlarni o‘rganish tahlilning eng muhim usullaridan biridir. Hisobotni o‘qish yoki u bilan oddiy tanishish korxona tomonidan jalb qilingan mablag‘larning, ularni kiritish yo‘nalishlari, hisobot davrida olingan foydaning, pul mablag‘larini olishning asosiy manbalari, hisobda qo‘llanilayotgan usullar va ulardagi o‘zgarishlar, korxonaning tashkiliy tuzilishi va faoliyati yo‘nalishlari, dividend siyosati va boshqalar haqida xulosa chiqarishga imkon beradi.

Gorizontal (yoki trendli) moliyaviy tahlil korxonaning olingan davrdagi alohida moliyaviy ko‘rsatkichlarini o‘rganish asosida shakllanadi. Ushbu tahlil tizimidan foydalanish jarayonida alohida moliyaviy ko‘rsatkichlarning o‘sinh surati hisoblanib, ularning umumiy o‘zgarishlari aniqlanadi. Moliyaviy menejmentda gorizontal moliyaviy tahlilning qo‘yidagi shakllari mavjud:

- hisobot davri moliyaviy ko‘rsatkichini o‘tgan davr ko‘rsatkichlari bilan taqqoslash;
- hisobot davrini moliyaviy ko‘rsatkichlarni o‘tgan yilning shu davri bo‘yicha taqqoslash;
- moliyaviy ko‘rsatkichlarni o‘tgan davrlar dinamikasi bilan taqqoslash.

Vertikal (yoki tarkibiy) moliyaviy tahlil korxonaning alohida moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlari tarkibi bo‘yicha shakllanadi. Bu tahlildan foydalanishda barcha alohida

tarkiblarning moliyaviy ko'rsatkilari jami salmog'i olib hisoblanadi. Bunda, tahlil ayrim moliyaviy ko'rsatkichlarning 100 foizga qabul qilingan umumiy yakuniy ko'rsatkichdagi salmog'ini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Moliyaviy menejmentda tahlilning qo'yidagi shakllariga asoslanadi:

- aktivlarning tarkibiy tahlili;
- kapitallarning tarkibiy tahlili;
- pul oqimlarining tarkibiy tahlili.

Taqqosli moliyaviy tahlil korxonaning alohida bo'lgan bir tarkibdagi ko'rsatkichlarni o'zaro bog'liqlikda mazmuniga qarab solishtirishlar asosida amalga oshiriladi. Moliyaviy menejmentda foydalanish uchun qo'yidagi tahlil shakllari mavjud:

- moliyaviy ko'rsatkichlarni tarmoqlararo taqqoslash;
- moliyaviy ko'rsatkichlarni raqobatbordoshligi bilan taqqoslash;
- moliyaviy ko'rsatkichlarni korxona ichki tarkibiy bo'lim birliklari bilan taqqoslash;
- moliyaviy ko'rsatkichlarni hisobot va reja bo'yicha taqqoslash.

Moliyaviy koeffitsientlar tahlili (R-tahlil) korxonaning umumiy moliyaviy ko'rsatkichlari turli xil hisoblashishlar bo'yicha o'zaro solishtirilishiga asoslanadi. Ayniqsa, nisbiy yoki boshqa ko'rsatkichlar bilan korxonaning moliyaviy holati va moliyaviy faoliyati natijalari aniqlanadi. Bu tahlilning qo'yidagi shakllari mavjud:

- moliyaviy barqarorlik tahlili;
- to'lov qobiliyatining tahlili;
- aktivlarning aylanishi tahlili;
- kapitalning aylanishi tahlili;
- rentabellik tahlili.

Qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyatining iqtisodiy samaradorligi ular bilan hamkorlik qiluvchi tashqi sub'ektlar, ya'ni moddiy-texnika ta'minoti korxonalari, turli ish va xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar, mahsulot sotishga ko'maklashuvchi, tayyorlov va qayta ishlash korxonalari, kreditorlar va investorlar uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Tashqi sub'ektlar, birinchi navbatda, xo'jalikning moliyaviy holatini ifoda etuvchi ko'rsatkichlarga e'tibor qaratadilar. Bu ko'rsatkichlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- kapital tarkibi ko'rsatkichlari;
- to'lov qobiliyati (likvidlik) ko'rsatkichlari;
- ish faolligi ko'rsatkichlari;
- rentabellik ko'rsatkichlari.

Kapital tarkibi ko'rsatkichlari korxonalarga uzoq muddatli moliyaviy mablag'lar (quyilmalar) kiritgan kreditorlar va investorlarning himoyalaniish darajasini aks etiradi. U korxonaning uzoq muddatli moliyaviy majburiyatlarini bajarish qobiliyatini ifodalaydi.

Mulk koeffitsienti (K_m) korxona jami kapitalida o'z xususiy kapitalining ulushini ko'rsatadi:

$$K_m = \frac{XK}{\mathcal{K}A_{\text{ikk}}}$$

Bu yerda: XK – korxonaning xususiy kapitali qiymati;

JA_{yk} – korxona jami aktivlarining yillik qiymati.

Moliyaviy qaramlik koeffitsienti (K_{mk}) korxonaning tashqi qarzlariga bog‘liqlik darajasini ifodalaydi:

$$K_{mk} = \frac{KK}{XK}$$

Bu yerda: KK – qarz evaziga jalb etilgan kapital qiymati;

XK – korxonaning xususiy kapitali qiymati.

Bu ko‘rsatkich qancha yuqori bo‘lsa, korxonaning qarzlar shuncha ko‘p va bankrotlik xatari shuncha yuqori bo‘ladi. Raqobatli bozor muhitida bu ko‘rsatkich birdan yuqori bo‘lmasligi maqsadga muvofiq.

$$K_{\kappa} = \frac{KK}{\mathcal{K}A_{u\kappa}}$$

Qarzdorlik koeffitsienti (K_q) korxonaning jami aktivlari summasidan kreditorlarga to‘lanishi lozim pul mablag‘lari hajmini ifodalaydi:

Bu yerda: KK – qarz evaziga jalb etilgan kapital qiymati;

JA_{yk} – jami aktivlarning qiymati.

Bu ko‘rsatkich qancha yuqori bo‘lsa, korxonaning qarzlar shuncha ko‘p va bankrotlik xatari shuncha yuqori bo‘ladi. Raqobatli bozor muhitida bu ko‘rsatkich 0,5 dan yuqori bo‘lmasligi maqsadga muvofiq.

Kreditorlarning himoyalanganligi koeffitsienti (K_{kx}) kreditorlarning berilgan kreditlar foizlari to‘lanmasligidan himoyalanganligi darajasini belgilaydi:

$$K_{kx} = \frac{CT\Phi}{\Phi X}$$

Bu yerda: SF – soliqlar va foizlar to‘langaunga qadar sof foyda;

FX – hisobot davrida foizlarni to‘lash xarajatlari.

Bu ko‘rsatkich xo‘jalikning hisobot davrida foiz xarajatlarini to‘lash uchun qancha mablag‘ ishlab topganini ko‘rsatadi va qancha yuqori bo‘lsa, kreditorlar uchun shuncha muhim hisoblanadi.

25.3. To‘lov qobiliyati (likvidlik) ko‘rsatkichlari tahlili

To‘lov qobiliyati (likvidlik) ko‘rsatkichlari korxonaning kreditorlar oldidagi qisqa muddatli majburiyatlarini bajarish uchun zarur bo‘lgan mablag‘lari nisbatini ifoda etadi.

Buning uchun zarur bo'lganda tezlik bilan pul mablag'lariga aylantirish imkoniyati (likvidligi) yuqori bo'lgan aylanma mablag'lar asos qilib olinadi.

Joriy likvidlik koeffitsienti (K_{jl}) korxonaning yil davomidagi qisqa muddatli majburiyatlarini qoplash uchun mablag'lari yetarli yoki yetarli emasligini aniqlash uchun ishlatiladi. Bu koeffitsient 1 va 2 sonlari oralig'ida bo'lishi maqsadga muvofiq:

$$K_{jl} = \frac{PM + MKk + DKs + TMZ}{M_{km}}$$

Bu yerda: PM – korxonaning pul mablag'lari;

MKk – qisqa muddatli moliyaviy quyilmalar;

DKs – sof debitorlik qarzi;

TMZ – tovar-moddiy zahiralar;

M_{km} – korxonaning qisqa muddatli majburiyatlari.

Tezkor likvidlik koeffitsienti (K_{shl}) korxonaning qisqa muddatli majburiyatlarini qoplash uchun likvidligi yuqoriroq mablag'lari nisbatini aks ettiradi:

$$K_{shl} = \frac{PM + MKk + DKs}{M_{km}}$$

Bu ko'rsatkichning mohiyati shundan iboratki, ayrim hollarda qisqa muddatli majburiyatlarni qaytarish muddati tugab, tezda qarzni uzish zarurati tug'ilganda tovar-moddiy qiymatliklarni pulga aylantirish imkoniyati biroz chegaralangan, ya'ni uni sotish jarayoni cho'zilib ketishi mumkin. Hisob raqami va kassadagi pul mablag'lari, qisqa muddatli moliyaviy quyilmalar va sof debitorlik qarzlari esa nisbatan yuqori likvidli moliyaviy resurslar hisoblanadi.

Absolyut likvidlik koeffitsienti (K_{al}) korxonaning qisqa muddatli majburiyatlarini qoplash uchun absolyut likvidlikka ega bo'lgan pul mablag'lari nisbatini aks ettiradi:

$$K_{al} = \frac{PM}{M_{km}}$$

Sof aylanma kapital korxonaning qisqa muddatli majburiyatlarini qoplash uchun zarur bo'lgan aylanma mablag'lari nisbatini aks ettiradi:

$$SAK = JA_q - QMM$$

Bu yerda: SAK – sof aylanma kapital;

JA_q – joriy aktivlar qiymati;

QMM – qisqa muddatli majburiyatlar summasi.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Samaradorlik, iqtisodiy samaradorlik nima?
2. Moliyaviy tahlil deganla nima tushuniladi?
3. Moliyaviy tahlil tizimi qanday ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi?
4. Kapital tarkibi ko'rsatkichlari tizimi qanday ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi?
5. To'lovga qobillik ko'rsatkichlari qanday aniqlanadi?
6. Ish faolligi ko'rsatkichlari qanday aniqlanadi?
7. Rentabellik ko'rsatkichlari qanday aniqlanadi?

1. Qishloq xo'jaligi korxonalarini davlat tomonidan tartibga solib turishning mohiyati, zaruriyati va o'ziga xos xususiyatlari

Qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlash zaruriyatini dastavval mamlakat iqtisodiyotining eng muhim tarmoqlaridan biri - qishloq xo'jaligi va uning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq holda qaramoq maqsadga muvofiqdir.

Amerikalik iqtisodchi – olimlar K.R. Makkonnel va S.L. Bryu davlatning agrar sohaga faol aralashuvi zaruriyatini quyidagi muammolarga bog'laydilar:

- qishloq xo'jalik mahsulotlariga bo'lgan talabning noelastikligi;
- texnik rivojlanish natijasida fermerlar mahsulotlarining talabdan oshiqcha ishlab chiqarilishi;
- qishloq xo'jalik resurslarining nisbatan immobillik xususiyati;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorida sof raqobat kurashi hukm surgan holda, unga resurslar yetkazib beruvchi bozorlarda monopoliya elementlarining mavjudligi.

Qishloq xo'jaligi korxonalari manfaati tomonidan yondoshsak, yil davomida mahsulot yetishtirish uchun sarflangan xarajatlar tabiiy ofat va qurg'oqchilik tufayli bekorga sovurilishi mumkin. Bunday paytlarda fermerning ko'rgan zararini qisman bo'lsada qoplamaslik kelgusi yil hosiliga ham tahdid soladi. Ob-havoning noqulay kelishi nafaqat qishloq xo'jaligi tarmog'ida balki, butun mamlakat miqyosida ham qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin. Oziq-ovqat tanqisligi vujudga kelmasligi uchun davlatning maxsus zahiralari bo'lishi maqsadga muvofiq. Hosil mo'l bo'lgan yillarda davlat oziq-ovqat mahsulotlarining talabdan oshiq qismini dehqonlardan xarid qilib, maxsus omborlarda saqlash va ob-havo noqulay kelib tanqislik vujudga kelgan yillari bu zahiralardan talabni qondirish maqsadida foydalanishi mumkin. Bu tadbir hozirgi vaqtda dunyoning bir qator ilg'or davlatlarida qo'llanib kelinadi va o'zining ijobiy samarasini bermoqda.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining tabiiy-iqlimiy sharoitlarga bog'liqligi, bu tarmoqda narxlar va qishloq xo'jaligi korxonalari daromadining barqarorligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, qulay ob-havo sharoitida bozorga talabdan ortiqcha mahsulotning kirishi bahoning keskin pasayishiga olib kelishi mumkin. Bunday holatni ko'proq sabzavot, poliz, meva va uzum mahsulotlari bozorida kuzatish mumkin. Ba'zan baholarning bunday pasayishi mahsulot tannarxini qoplashga ham imkon bermasligi oqibatida fermerlar katta zarar ko'radi. Tabiiyki, bunday sharoitlarda agrar sohada erkin bozor munosabatlari amal qilayotgan bo'lsa, qishloq xo'jaligi korxonalari xonavayron bo'lishi turgan gap.

Qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash zaruriyati qishloq xo'jaligida kapital aylanishining xususiyatlaridan ham kelib chiqadi. Ma'lumki, sanoat, savdo, moliya bozorlari kabi bir qator tarmoqlarda kapital aylanishi qishloq xo'jaligiga nisbatan bir necha marta yuqoridir. Kapital qancha tez aylansa, shunchalik ko'p foyda keltirishi tufayli qishloq xujaligida kapitalning sekin aylanishi bu tarmoqqa investitsiya imkoniyatlarini keskin chegaralaydi.

Ammo, yerlarning meliorativ haolatini yaxshilash, yangi yerlarni o'zlashtirish va sug'orish tarmoqlarini barpo etish, ishlab chiqarishni texnik qurollantirish, fan-texnika yutuqlari va ilg'or texnologiyalarni joriy etish, ekologik vaziyatni barqaror ushlab turish kabi muhim tadbirlarni amalga oshirish uchun yirik kapital mablag'lar talab etiladiki, bu tadbirlarni yolg'iz qishloq xo'jaligi korxonalari mablag'lari hisobidan amalga oshirib bo'lmaydi. Buning uchun davlat byudjeti hisobidan maxsus mablag'lar ajratilishi maqsadga muvofiq. Va nihoyat, qishloq xo'jaligi korxonalari ijtimoiy rivojlanishi, ya'ni ular uchun

yo'llar barpo etish, gaz, suv, elektr ta'minoti, ijtimoiy madaniy ob'ektlar qurish kabi umumdavlat ahamiyatiga ega bo'lgan muammolar mavjudki, bu muammolarni davlat homiyligisiz yechib bo'lmaydi.

Albatta qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyatini tartibga solib turish to'g'risida gap borganda ularning faoliyatiga davlatning bevosita aralashuvi haqida emas, balki davlatning o'z qo'lidagi ma'muriy, iqtisodiy va institutsional dastaklar bilan dehqon va fermer xo'jaliklari faoliyatiga ta'sir ko'rsatishi haqida gap borayotganini unitmaslik lozim.

Qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlash zaruriyati davlatning oldiga **bir qator vazifalarni** qo'yadi. Davlatning qishloq xo'jaligi korxonalari qo'llab-quvvatlash bo'yicha asosiy vazifalari sifatida quyidagilar belgilangan:

- ishlab chiqarish va ijtimoiy-maishiy ahamiyatga molik ob'ektlari bo'lmagan hududda fermer xo'jaliklari tashkil etilganida uni birlamchi obodonlashtirish (yo'llar, elektr uzatish, va aloqa liniyalari qurish, suv bilan ta'minlash, gazlashtirish, telefonlashtirish, radiolashtirish, yer tuzish, yerlarni melioratsiyalash;

- ularga ishlab chiqarish ob'ektlari va turar joylarni barpo etishda yordam ko'rsatish;
- kerakli mol-mulk va ishlab chiqarish vositalarini birjalarda, yarmarkalarda, bozorlarda yuridik va jismoniy shaxslardan olishda ko'maklashish;

- navli urug' va qishloq xo'jalik ekinlarining ko'chat materiallarini, organik va mineral o'g'itlarni, qishloq xo'jalik ekinlarini zararkunandalar va kasalliklardan himoya qilish vositalarini yetkazib berish yuzasidan davlat tegishli agrotexnik xizmat ko'rsatish tizimlari orqali texnikaviy xizmat ko'rsatish;

- qishloq xo'jaligi texnikasi, asbob-uskunalar va ashyo-anjomlarini lizing asosida olishda ko'maklashish;

- chorva mollar va parrandalar boqish uchun shartnoma asosida aralash ozuqa ajratish, yosh chorva mollar va parrandalar, zotdor qoramollar olishda ko'maklashish;

- chorva mollariga zooveterinariya xizmati ko'rsatish uchun zarur sharoitlar yaratib berish;

- yetishtirgan mahsulotlarini tayyorlash va sotishda ko'maklashish;

- konsalting va axborot xizmatlari ko'rsatish.

Qishloq xo'jaligining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda davlatning qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyatini tartibga solishdagi asosiy vazifalari sifatida yana quyidagilarni belgilash mumkin:

Huquqiy himoyalash va tartibga solish vazifasi – barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlar bilan teng sharoitlarda faoliyat yuritishini ta'minlashga imkon beruvchi qonuniy-me'yorlar hujjatlarni qabul qilish hamda ularga rioya etilishini nazorat etishni nazarda tutadi.

Rag'batlantirish vazifasi – xususiy tadbirkorlik tashabbusi, adolatli raqobat kurashi hamda qishloq xo'jaligi korxonalari, shuningdek ularga xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlar faoliyatini turli iqtisodiy dastaklar yordamida rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash choralari ifodalaydi.

Taqsimlash vazifasi- ijtimoiy adolat va himoyalash vositasi sifatida daromadlarni qayta taqsimlash, shuningdek qishloq xo'jaligi korxonalari moddiy-texnikaviy resurslardan imtiyozli asoslarda foydalanishiga sharoit yaratish maqsadida resurslar taqsimotiga tuzatishlar kiritish bilan bog'liq.

Ijtimoiy kafolatlash vazifasi – ijtimoiy ta'minot va himoyalashning samarali tizimini yaratish, shuningdek ta'lim, sog'liqni saqlash va madaniy tadbirlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish bilan bog'liq chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Axborot-maslahat ta'minoti vazifasi - axborot ta'minoti tizimidan teng sharoitlarda, to'siqlarsiz foydalanish imkoniyatini yaratish, ular uchun iqtisodiy muammolarning samarali

yechimini topish, xom-ashyo va resurslar ta'minoti, ilg'or texnika va texnologiyalarni qo'llash yuzasidan maslahatlar berishni nazarda tutadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyatini davlat tomonidan tartibga solib turish deganda nimani tushunasiz?
2. Qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyatini davlat tomonidan tartibga solib turishni qanday omillar taqozo etadi?
3. Qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyatini tartibga solib turish va qo'llab-quvvatlash zaruriyati davlat oldiga qanday vazifalarni qo'yadi?
4. Davlat tomonidan qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyatini tartibga solish va qo'llab-quvvatlash qanday usullar va shakllarda olib boriladi?
5. Qishloq xo'jaligi korxonalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash qaysi davlat organlari orqali amalga oshiriladi?

